O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI

# TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASH VA XUSUSIY SEKTORNI RIVOJLANTIRISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O‘SISH UCHUN SHART-SHAROITLAR YARATISH BORASIDAGI NAVBATDAGI ISLOHOTLAR TO‘G‘RISIDA

2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, shuningdek, inklyuziv va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish orqali kambag‘allikni ikki barobarga qisqartirish, iqtisodiyotda raqobatni ta’minlash, tadbirkorlik subyektlariga teng sharoitlar yaratish, bozor munosabatlariga to‘laqonli o‘tishni jadallashtirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, xususiy investitsiyalar hajmini keskin oshirish hamda biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlash maqsadida:

1. Quyidagilar iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda xususiy sektorning rolini oshirish, barcha tarmoq va sohalarda xususiy sektorning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilansin:

xususiy mulk daxlsizligi va tadbirkorlik faoliyati erkinligini kafolatlash borasidagi institutsional va ma’muriy islohotlarni davom ettirish hamda bu borada qonun ustuvorligini ta’minlash;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini shaffof tarzda xususiylashtirish mexanizmlaridan, eng avvalo, xususiy investorlarni jalb qilishning muhim omili sifatida foydalanish hamda yerlarni auksionga chiqarishda ularning jozibadorligini oshirish uchun infratuzilma va boshqa zaruriy sharoitlarni yaratib berish;

davlat ishtiroki saqlanib qolayotgan tovar va xizmatlar bozorini erkinlashtirish hamda ushbu sohalarga xususiy sektorning kirib kelishi uchun sharoit yaratish, monopoliyaga qarshi organning institutsional salohiyati va vakolatini kuchaytirish orqali sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish;

“tartibga soluvchi gilotina” usulini manzilli qo‘llash orqali imtiyozlar, eksklyuziv huquq va ustunliklarni bekor qilish;

davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini transformatsiya qilish hamda xususiylashtirishni jadallashtirish, iqtisodiyotda samarasiz ishlayotgan korxonalar ulushini kamaytirish hisobiga sifat jihatidan yangi, xususan, ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillariga asoslangan investitsiyalar va ishlab chiqarish unumdorligi yuqori bo‘lgan texnologiyalarning ko‘payishini rag‘batlantirish;

pul va kapital bozorlarini yanada erkinlashtirish hisobiga moliya bozoridagi turli segmentlarning rivojlanishiga turtki berish, shu orqali xususiylashtirilgan va transformatsiya jarayonidagi korxonalarga o‘z faoliyatini moliyalashtirishning muqobil manbalarini shakllantirishga sharoit yaratish;

iqtisodiyotning drayver tarmoqlari, xususan, tog‘-kon, neft-gaz, kimyo, qurilish materiallari sanoati va boshqa sohalarni kafolatlangan xomashyo bazasi bilan ta’minlash uchun geologiya-qidiruv ishlariga, qazib chiqarish va qayta ishlash jarayoniga xorijiy investorlarni jalb qilishni jadallashtirish, mineral xomashyo bazasi zaxiralarini ko‘paytirishni qo‘llab-quvvatlash;

energiya resurslari, transport va kommunikatsiya bozorlarini rivojlantirish va sohaga xususiy investitsiyalar kirib kelishi uchun sharoitlar yaratish;

ichimlik va oqova suv ta’minoti, issiqlik ta’minoti, obodonlashtirish, yo‘l qurilishi, aviatsiya infratuzilmasi sohalarida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini keskin ko‘paytirish;

barcha soha va tarmoqlarda korrupsiya holatlarining har qanday ko‘rinishiga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish va unga qarshi ayovsiz kurashish;

davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarida korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini, shu jumladan “komplaens” nazorat tizimini keng joriy etish, xaridlar tizimi shaffofligini ta’minlash orqali korrupsiyaning oldini olish.

2. Xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish, investitsiyaviy muhit jozibadorligini oshirish hamda davlat aktivlarini (davlat aksiya paketlari, ulushlari, ko‘chmas mulk obyektlari) sotib olgan investorlarga qo‘shimcha qulayliklar yaratish maqsadida:

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini mulk huquqi asosida auksion orqali sotishda davlat aktivlarini sotishda qo‘llaniladigan uch yilgacha bo‘lib-bo‘lib to‘lash tartibi tatbiq etilsin;

bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotilgan davlat aktivlari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari bo‘yicha kamida 35 foiz miqdoridagi dastlabki to‘lovni bir yo‘la amalga oshirgan xaridorlarga mazkur davlat aktivlari va yer uchastkalarini kredit ta’minoti sifatida garovga qo‘yish huquqi berilsin.

Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda mazkur bandning uchinchi xatboshisi bilan joriy etilayotgan davlat aktivlari va yer uchastkalarini kredit ta’minoti sifatida garovga qo‘yish huquqini berish bo‘yicha tartibni ishlab chiqib tasdiqlasin.

3. 2022-yil 1-maydan boshlab ro‘yxati Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan xorijiy davlatlar fuqarolariga O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasini talab qilmagan holda, yangi barpo etilayotgan quyidagi ko‘chmas mulk obyektlarini (bundan yer uchastkasi mustasno) sotib olish tarzida investitsiya kiritish huquqi berilsin:

Toshkent viloyati, Toshkent va Samarqand shaharlarida — qurilish davrida tuzilgan shartnomalarga asosan qiymati 150 000 AQSh dollari ekvivalentidan, foydalanishga qabul qilingan ko‘chmas mulk obyektlarida qiymati 180 000 AQSh dollari ekvivalentidan kam bo‘lmagan ko‘chmas mulk obyektlari;

boshqa hududlarda — qurilish davrida tuzilgan shartnomalarga asosan qiymati 70 000 AQSh dollari ekvivalentidan, foydalanishga qabul qilingan ko‘chmas mulk obyektlarida qiymati 85 000 AQSh dollari ekvivalentidan kam bo‘lmagan ko‘chmas mulk obyektlari.

Bunda, mazkur bandda nazarda tutilgan ko‘chmas mulk obyektlarini sotib olish xorijiy davlatlar fuqarolariga O‘zbekiston Respublikasida doimiy ro‘yxatdan o‘tish va yashash guvohnomasini olish uchun asos bo‘lmaydi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son Farmoniga 6-ilovaga muvofiq xorijiy mamlakatlar fuqarolariga ko‘chmas mulk sotib olish sharti bilan O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasini olish uchun talab etiladigan ko‘chmas mulk qiymati miqdori Toshkent viloyati va Toshkent shahrida 400 000 AQSh dollaridan 300 000 AQSh dollari ekvivalentigacha kamaytirilsin.

5. Iqtisodiyotda raqobat muhitini yanada yaxshilash va xususiy sektor oldidagi byurokratik to‘siqlarni qisqartirish maqsadida Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi, Moliya vazirligi va Adliya vazirligining quyidagi takliflari ma’qullansin:

a) oxirgi kalendar yilida tovarlar (xizmatlar)ni sotishdan tushgan tushumi bazaviy hisoblash miqdorining o‘n ming baravaridan oshmaydigan yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar yoxud shaxslar guruhini (tabiiy monopoliya subyektlari, davlat xaridlari va birja savdolari ishtirokchilari, mahsulotlarining narxlari davlat tomonidan tartibga solinadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlardan tashqari) tovar yoki moliya bozorlarida ustun mavqe egallagan deb e’tirof etmaslik hamda ularga nisbatan monopoliyaga qarshi choralarni qo‘llamaslik;

b) 2022-yil 1-sentabrdan boshlab, raqobatga qarshi harakatlarni sodir etgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan quyidagilar uchun moliyaviy jarimalarni qo‘llash:

tovar va moliya bozorida raqobatni cheklashga olib keluvchi kelishuvlar (kelishib olingan harakatlar) va iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish;

tovar va moliya bozoridagi ustun (monopol) mavqeni hamda yuqori muzokara ustunligini suiiste’mol qilganlik, ijtimoiy va strategik ahamiyatga ega mahsulotlar narxlarini asossiz oshirganlik va insofsiz raqobat;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarni qo‘shib yuborishda, qo‘shib olishda va ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) sotib olish bo‘yicha bitimlar tuzishda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik;

ommaviy savdolarda raqobatga zid harakatlar amalga oshirganlik va monopoliyaga qarshi talablarni buzganlik.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Vazirlar Mahkamasi 2022-yil 1-iyulga qadar moliyaviy jarimalarning aniq miqdorlari va ularni qo‘llash tartibini nazarda tutuvchi yangi tahrirdagi “Raqobat to‘g‘risida”gi qonun loyihasini Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritsin. Bunda, undirilgan moliyaviy jarimalar summasini to‘liq Davlat budjetiga yo‘naltirish hamda raqobatga qarshi harakatlarning boshqa turlari uchun ham javobgarlik nazarda tutilsin;

*(5-band “b” kichik bandining oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-maydagi PF-145-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 06/22/145/0459-son)*

v) 2022-yil 1-sentabrdan boshlab, quyidagilar uchun ma’muriy javobgarlikni kuchaytirish:

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan xomashyo, tovarlar va xizmatlarning erkin harakatlanishi va realizatsiya qilinishini (ko‘rsatilishini) noqonuniy cheklash;

litsenziyalash, ro‘yxatga olish, akkreditatsiyadan o‘tkazish va ruxsat berish vakolati berilgan davlat unitar korxonalari yoki muassasalari, yuridik shaxslar birlashmalari tomonidan raqobatni cheklaydigan qarorlar qabul qilish;

monopoliyaga qarshi organ talabiga ko‘ra, zarur hujjat va axborotlarni taqdim etmaganlik, noto‘g‘ri yoki yolg‘on ma’lumotlar taqdim etganlik.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Vazirlar Mahkamasi 2022-yil 1-iyulga qadar Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga tegishli qonun loyihasini kiritsin;

*(5-band “v” kichik bandining beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-maydagi PF-145-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 06/22/145/0459-son)*

g) 1-ilovada nazarda tutilgan chora-tadbirlar rejasiga muvofiq xususiy sektorni keng jalb qilish hamda eksklyuziv huquqlarni bekor qilish orqali mavjud monopoliyalarni bartaraf etish;

d) 2023-yil 1-yanvardan boshlab Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi tomonidan har yili Oliy Majlis Senatiga axborot beriladigan Raqobat rivojlanishi indeksini joriy qilish.

6. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi, Moliya vazirligi va Adliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda davlat xizmatlari va funksiyalarini bajarishga xususiy sektorni keng jalb etishni jadallashtirish bo‘yicha qaror loyihasini kiritsin.

7. Moliya vazirligi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi manfaatdor idoralar bilan birgalikda 2022-yil yakuniga qadar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari yoki norezidentlari bo‘lgan mijozlar uchun ularning shaxsiy ishtirokisiz qimmatli qog‘ozlar uchun depo hisobvaraqlarini masofadan turib ochish imkoniyatini yaratsin.

8. Moliya vazirligining 2022-yil 1-maydan boshlab norezident jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan oladigan daromadlari (dividendlar, foizlar va fraxtdan olinadigan daromadlardan tashqari) bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkasini 12 foiz miqdorida belgilash haqidagi taklifi ma’qullansin.

Moliya vazirligi manfaatdor idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda Soliq kodeksiga mazkur banddan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bo‘yicha qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

9. Tadbirkorlik subyektlari uchun teng raqobat sharoitlarini yaratish, shuningdek, soliq va bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlarni taqdim etishni tartibga solish maqsadida:

a) 2022-yil 1-maydan boshlab:

tadbirkorlik subyektlariga teng sharoitlarni yaratish uchun cheklangan subyektlarga tatbiq etilayotgan soliq va bojxona imtiyozlari 2-ilovaga muvofiq tarmoqlardagi barcha subyektlar uchun tatbiq etilsin;

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo‘yicha 2020-yil 1-iyulga qadar ma’qullangan va O‘zbekiston Respublikasining tijorat banklari orqali qayta moliyalashtiriladigan yoki qayta kreditlanadigan xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining mablag‘lari (qarzlari, kreditlari) hisobidan olinadigan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha soliq va bojxona imtiyozlari bekor qilinsin. Mazkur norma tijorat banklari va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida yangi tuziladigan bitimlar (rasmiylashtirish shakli va usulidan qat’iy nazar) asosida olinadigan tovarlarga (xizmatlarga) tatbiq etiladi;

b) ayrim soliqlar va bojxona imtiyozlari 3-ilovaga muvofiq bosqichma-bosqich bekor qilinsin;

v) Vazirlar Mahkamasi xatlov natijasiga ko‘ra aniqlangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan taqdim etilgan ayrim soliqlar va bojxona imtiyozlarining amal qilishini davom ettirish zaruriyatini tanqidiy qayta ko‘rib chiqib, 2022-yil 1-avgustga qadar ularni bekor qilish yuzasidan taklif kiritsin;

g) 2022-yil 1-iyuldan boshlab:

bojxona bojlari bo‘yicha imtiyozlar faqatgina O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan berilsin. Bunda, Tarif va notarif tartibga solish kengashi xulosasi olinishi majburiy hisoblansin;

tarmoq vazirlik va idoralari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlari sohani va (yoki) hududni rivojlantirish uchun berilgan alohida soliq va bojxona imtiyozlari samaradorligi to‘g‘risidagi hisobotlarni yil yakunlari bo‘yicha har yili 1-martga qadar Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasiga taqdim etib borsin.

10. Moliya vazirligi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Energetika vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Transport vazirligi va Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi bilan birgalikda:

a) 2022-yil 1-mayga qadar tajribali investitsiya bankini jalb etib, 2022-yil yakuniga qadar “O‘zbekneftgaz” AJning, shu jumladan aksiyalarini ommaviy joylashtirish (IPO) orqali kamida 49 foiz ulushini, shuningdek, “Issiqlik elektr stansiyalari” AJdagi 51 foiz va undan yuqori miqdordagi davlat ulushini xususiylashtirish ishlarini boshlasin;

*Oldingi tahrirga qarang.*

b) 2022-yil 1-noyabrga qadar xalqaro konsalting kompaniyasi xulosalari asosida “O‘zbekgidroenergo” AJni isloh qilish strategiyasini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

*(10-band “b” kichik bandining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.09.2022-y., 06/22/220/0812-son)*

Bunda, yangi kichik va o‘rta gidroelektrostansiyalarni qurishda xususiy sektor ishtirokidagi, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosidagi loyihalarni amalga oshirishga ustuvorlik berilsin;

v) 2022-yil 1-sentabrga qadar “Uzbekistan airways” AJ ustav kapitalidagi 51 foiz va undan yuqori miqdordagi davlat ulushining savdoga chiqarilishini, shu jumladan aksiyalarini ommaviy joylashtirish (IPO) ishlarini boshlasin;

g) 2022-yil 1-avgustga qadar xalqaro investitsiya banki va konsultantlarni jalb etgan holda, “UzAuto Motors” AJ aksiyalar paketining 10 foizgacha qismini mahalliy fond bozorida ommaviy joylashtirsin (IPO) va bu korxonaning qolgan ulushini hamda “UzAuto Motors Powertrain” AJ, “Samarqand Avtomobil zavodi” MChJni strategik investorlarga sotish strategiyasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

11. Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda:

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ va “O‘ztransgaz” AJning magistral tarmoqlarini to‘liq davlat ixtiyorida saqlab qolishni nazarda tutgan holda, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan 2023-yil yakuniga qadar, “O‘ztransgaz” AJ tomonidan 2024-yil yakuniga qadar xalqaro kredit reytingi qo‘lga kiritilishi, moliyaviy intizomga qat’iy rioya etgan holda mustaqil ravishda xalqaro banklar va kapital bozoridan mablag‘ jalb etishga erishilishini;

xalqaro moliya institutlari va konsultantlar xulosalari asosida 2022-yil 1-sentabrga qadar “Hududgazta’minot” AJ va “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ faoliyatini takomillashtirish, jumladan ularning operatsion samaradorligini oshirish, sohaga xususiy sektorni jalb qilish, bunda tajriba tariqasida, dastlab o‘n to‘rtta shahar va tumanda, aholi uchun belgilanadigan tariflarni oshirmagan holda tabiiy gaz va elektr energiyasini ulgurji xarid qilish va sotish funksiyasini xususiy operatorga berish bo‘yicha qaror qabul qilinishini ta’minlasin.

12. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Transport vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi:

a) ikki oy muddatda “Uzbekistan Airports” AJning Toshkent shahridagi va hududiy xalqaro aeroportlarini modernizatsiya qilish va operatsion samaradorligini oshirish uchun xususiy sektorga davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida boshqaruvga berish bo‘yicha qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin. Bunda, Farg‘ona vodiysidagi aeroportlarni maqbullashtirish orqali ulardan samarali foydalanish choralari nazarda tutilsin;

b) bir oy muddatda Jahon bankini jalb etib, 2022-yil 1-iyunga qadar “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJni transformatsiya qilish, rivojlantirish va xususiylashtirish strategiyasi ishlab chiqilishini ta’minlasin.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJni transformatsiya qilish bo‘yicha maxsus ishchi guruh 4-ilovaga muvofiq tarkibda tasdiqlansin.

Ishchi guruh (J. Qo‘chqorov) 2022-yil 1-avgustga qadar “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJni transformatsiya qilish bo‘yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi qaror loyihasini kiritsin:

o‘zining yo‘lovchi va yuk vagonlariga ega xususiy operatorlar faoliyatini rivojlantirish hamda temir yo‘l transporti xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirishga qaratilgan shaffof va moslashuvchan tarif tizimini yaratish yo‘li bilan tarif siyosatini takomillashtirish;

temir yo‘l transporti korxonalarida operatsion va biznes jarayonlar samaradorligini oshirish, shu jumladan xizmat ko‘rsatuvchi va iste’molchi o‘rtasidagi munosabatlarni raqamli transformatsiya qilish yo‘li bilan integratsiyalash;

temir yo‘l orqali ichki va xalqaro yuk hamda yo‘lovchi tashuvlarini davlat-xususiy sheriklik yoki franshiza asosida xususiy sektorga berish;

v) 2022-yil 1-avgustga qadar xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda Toshkent shahar jamoat transporti tizimini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi doirasida jamoat transporti faoliyatiga xususiy sektorni, jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida loyihalarni amalga oshirishga jalb etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta’minlasin.

Vazirlar Mahkamasi 2022-yil 1-dekabrga qadar Toshkent shahri misolida Nukus shahri va barcha viloyatlar markazlarida jamoat transporti infratuzilmasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqib, joriy etishni boshlasin.

13. Avtomobil yo‘llari qo‘mitasini isloh qilish bo‘yicha maxsus ishchi guruh 5-ilovaga muvofiq tarkibda tasdiqlansin.

Ishchi guruh (T. Ishmetov) ikki oy muddatda sohada nazorat va xo‘jalik funksiyalarini aniq chegaralash, monopoliyadan chiqarish, xususiy sektor korxonalarini jalb qilish, budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tizimidan pudrat va ishlab chiqarish korxonalarini chiqarish orqali uni isloh qilish bo‘yicha qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

14. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va jalb qilingan professional konsultantlar bilan birgalikda 2022-yil 1-sentabrga qadar “O‘zbektelekom” AK va “O‘zbekiston pochtasi” AJni isloh qilish strategiyasi ishlab chiqilishi va tasdiqlash uchun kuzatuv kengashiga kiritilishini ta’minlasin.

15. Davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalari (keyingi o‘rinlarda — davlat ishtirokidagi korxonalar) boshqaruv organlarining faoliyati samaradorligini, mas’uliyati va javobgarligini oshirish maqsadida belgilab qo‘yilsinki:

2022-yil 1-apreldan keyin ijro organi rahbari sifatida tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ijro organi rahbari bo‘lishi mumkin emas;

2022-yil 1-maydan boshlab kuzatuv kengashi a’zolaridan iborat Strategiya va investitsiyalar qo‘mitasi, Audit qo‘mitasi, Tayinlovlar va haq to‘lash qo‘mitasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi tashkil etiladi;

kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo‘yicha saylangan a’zolar faoliyati korxonada transformatsiya jarayonlarini samarali tashkil etish, korxonaning tashqi qarzlarini optimallashtirish, zamonaviy xarid tizimini joriy etish, ushbu Farmonda nazarda tutilgan talablarni bajarish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga muqobil mablag‘larni jalb etish kabi mezonlar asosida baholanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

16. Moliya vazirligi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 1-yanvardan boshlab, davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi a’zolarini rag‘batlantirish va ijro organi a’zolari mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha yagona rag‘batlantirish siyosatini joriy etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin. Bunda, ijro organi a’zolariga oylik ish haqi va yil yakunlari bo‘yicha bir yo‘la to‘lanadigan mukofot to‘lovlardan tashqari har qanday qo‘shimcha to‘lov turlari bekor qilinsin.

*(16-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.09.2022-y., 06/22/220/0812-son)*

17. Moliya vazirligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining 6-ilovada ko‘rsatilgan aksiyadorlik jamiyatlarida transformatsiya va xususiylashtirish jarayonlarini samarali tashkil etishga qaratilgan maxsus boshqaruv tizimini joriy etish haqidagi taklifiga rozilik berilsin. Bunda:

jamiyat kuzatuv kengashining Strategiya va investitsiyalar qo‘mitasi raisi uning mustaqil a’zolari orasidan tayinlanadi va mazkur qo‘mitaga korxonaning transformatsiya va xususiylashtirish jarayonlarini doimiy boshqarish vazifalari yuklatiladi;

jamiyat ijro organi rahbarining transformatsiya masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari lavozimi joriy etiladi va unga bo‘ysunadigan loyiha ofisi tashkil etiladi;

jamiyat ijro organi rahbarining transformatsiya masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosariga ijro organining barcha rahbar o‘rinbosarlari va tarkibiy bo‘linmalar transformatsiyaga tegishli masalalar bo‘yicha hisobdor bo‘ladi;

jamiyat ijro organi rahbarining transformatsiya masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari va loyiha ofisining xarajatlar smetasi kuzatuv kengashi tomonidan alohida tasdiqlanadi;

jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan ijro organi rahbariga xususiylashtirish jarayonlarini, shu jumladan aksiyalarni ommaviy joylashtirishni (IPO) sifatli va belgilangan muddatlarda amalga oshirganligi uchun alohida mukofot (mazkur Farmonning 16-bandida ko‘zda tutilgan rag‘batlantirishdan tashqari) yoki amalga oshirmaganlik uchun javobgarlik choralari belgilanadi.

18. Davlat ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiyotdagi ishtirokini cheklash va qisqartirish maqsadida, ularga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlarida nazarda tutilmagan hollarda:

asosiy faoliyatiga xos bo‘lmagan yangi ko‘chmas mulk obyektlarini sotib olish yoki qurish;

raqobat rivojlangan sohada asosiy faoliyatidan tashqari qo‘shimcha faoliyat bilan shug‘ullanish;

asosiy faoliyatiga xos bo‘lmagan xo‘jalik jamiyatlari ustav kapitalida ishtirok etish yoki undagi ulushni sotib olish taqiqlansin.

Belgilansinki, davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan asosiy faoliyatiga xos bo‘lgan yangi ko‘chmas mulk obyektlarini sotib olish yoki qurish hamda xo‘jalik jamiyatlari ustav kapitalidagi ulushni sotib olish, shuningdek, asosiy faoliyatidan tashqari qo‘shimcha faoliyat bilan shug‘ullanish kuzatuv kengashi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

19. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan tijorat banklari tomonidan mulkni begonalashtirish, uni sotish shakli va mexanizmi, davlat ishtirokidagi korxonalar va ularning tarkibidagi korxonalar ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan

investitsiya kiritish bo‘yicha kelishuvlari (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) majburiy tarzda ushbu korxonalar kuzatuv kengashi bilan kelishilgandan keyin tuziladi;

davlat ishtirokidagi korxonalarning homiylikka sarflanadigan har yilgi xarajatlari o‘tgan yilda olingan sof foydaning 3 foizidan oshmasligi kerak hamda bu xarajatlar ular biznes-rejasining o‘tgan hisobot davridagi sof foydaga taalluqli qismi ko‘rsatkichlari bajarilganda amalga oshiriladi (bundan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlarida nazarda tutilgan hollar mustasno).

20. Davlat soliq xizmati organlariga xo‘jalik jamiyatlarida davlat ulushi bo‘yicha dividendlar miqdorini belgilashda moliyaviy natijaning to‘g‘ri shakllantirilishi ustidan nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

21. Davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida 2022 — 2024-yillar davomida amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalarning sohalar kesimidagi “Yo‘l xaritasi” 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

22. Moliya vazirligi Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat soliq qo‘mitasi, Markaziy bank va Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bilan birgalikda 2022-yil 1-iyunga qadar yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish va uni qisqartirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

23. Mazkur Farmonda belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida:

Bosh vazir A.N. Aripov boshchiligida Muvofiqlashtiruvchi ishchi guruh tuzilsin va uning tarkibi 8-ilovaga muvofiq;

Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda xususiy sektorning rolini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar rejasi 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

24. Muvofiqlashtiruvchi ishchi guruh (A.N. Aripov):

bir oy muddatda ijro muddatlari va mas’ullarning vazifasini aniq belgilagan holda, har bir korxona bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarning tarmoq jadvalini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

6-ilovada nazarda tutilgan korxonalarning kuzatuv kengashlari raislari va ijro organi rahbarining transformatsiya masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosarlarining ishini muhokama qilib, ular faoliyatini muvofiqlashtirsin va nazorat qilsin;

har bir korxona rahbarining mazkur Farmonda belgilangan vazifalar ijrosini so‘zsiz va belgilangan muddatlarda ta’minlash borasidagi hisobotini eshitib borsin, zarur hollarda ularning o‘z lavozimiga loyiqligi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga taklif kiritsin;

davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida amalga oshiriladigan loyihalarning ijro holati bo‘yicha vazirlik va idoralar rahbarlarining shaxsiy hisobotini har chorakda tanqidiy muhokama qilib borsin;

zarur hollarda, davlat tashqi qarzi hisobiga amalga oshirilgan alohida investitsiya loyihalarining samaradorligi va natijadorligini mustaqil auditorlik kompaniyasini jalb qilgan holda baholash tashabbusi bilan chiqsin;

har oy yakuni bilan amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida muhokama qilib borsin.

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga 10-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlari 11-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

27. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,
2022-yil 8-aprel,
PF-101-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son Farmoniga
1-ILOVA

## Xususiy sektorni keng jalb qilish hamda eksklyuziv huquqlarni bekor qilish orqali mavjud monopoliyalarni bartaraf etish bo‘yicha

CHORA-TADBIRLAR REJASI

| T/r | Faoliyat turlari nomi | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar | Muddat | Mas’ul vazirlik va idoralar |
|---|---|---|---|---|
| **I. Eksklyuziv huquqlar bekor qilinadigan faoliyat turlari** | | | | |
| 1. | Aholi va ijtimoiy soha obyektlariga suyultirilgan gaz yetkazib berish | 1. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-avgustdagi “Aholi va ijtimoiy soha obyektlariga kundalik hayotda foydalanish uchun suyultirilgan uglevodorod gazini yetkazib berish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 646-son qaroriga o‘zgartirish kiritish orqali aholi va ijtimoiy soha obyektlariga suyultirilgan uglevodorod gazini yetkazib berish bo‘yicha “Hududgazta’minot” AJ va uning hududiy gaz ta’minoti tashkilotlariga berilgan eksklyuziv huquqlarni bekor qilish. | 2022-yil iyun | Energetika vazirligi, “Hududgazta’minot” AJ, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi, Moliya vazirligi |
| | | 2. Aholi va ijtimoiy soha obyektlariga suyultirilgan uglevodorod gazini yetkazib berish hamda tariflarini belgilash bo‘yicha tartib ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2022-yil iyul | |
| | | 3. Ochiq tender va tanlov savdolari orqali maishiy gaz balonlarini suyultirilgan gaz bilan to‘ldirish va tashish xizmatlarini ko‘rsatish sohasiga litsenziyaga ega bo‘lgan xususiy sektor subyektlarini jalb qilish. | 2022-yil iyul — sentyabr | |
| 2. | Haydovchilarni va haydovchilikka nomzodlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish | 1. Haydovchi va haydovchilikka nomzodlarni transport vositalarini boshqarishga yaroqliligini tekshirish uchun tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga (ro‘yxat raqami 2472-son, 2013-yil 27-iyun) o‘zgartirish kiritish orqali tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha davlat davolash-profilaktika muassasalariga berilgan | 2022-yil avgust | Sog‘liqni saqlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | eksklyuziv huquqlarni bekor qilish. | | |
| | | 2. Teng raqobat sharoitini yaratish maqsadida litsenziyaga ega boʻlgan xususiy tibbiyot muassasalariga ushbu faoliyat bilan shugʻullanish uchun ruxsat berish. | 2022-yil sentyabr | |
| 3. | Ishlatilgan texnik moylarni toʻplash va qayta ishlash | 1. Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 4-sentabrdagi 258-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlatilgan texnik moylarni topshirish, toʻplash, ular uchun hisob-kitob qilish, ularni saqlash va tashish tartibi toʻgʻrisidagi nizomga oʻzgartirish kiritish orqali ishlatilgan texnik moylarni toʻplash va qayta ishlash boʻyicha “Uz-Prista Recycling” QK MChJga berilgan eksklyuziv huquqlarni bekor qilish. | 2022-yil sentyabr | Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi |
| | | 2. Teng raqobat sharoitini yaratish va boshqa xoʻjalik yurituvchi subyektlarga ushbu faoliyat bilan shugʻullanishga qatʼiy talablar asosida ruxsat berish. | 2022-yil oktyabr | |
| | | 3. Ishlatilgan texnik moylarni topshirish, toʻplash, ular uchun hisob-kitob qilish, ularni saqlash va tashish boʻyicha talablarni qayta koʻrib chiqish. | | |
| 4. | Tovarlarning kelib chiqishi toʻgʻrisidagi sertifikatni berish | 1. Tovarlarning kelib chiqishini sertifikatlashni oʻtkazish tartibi toʻgʻrisidagi nizomga (roʻyxat raqami 2131-son, 2010-yil 13-avgust) tegishli oʻzgartirish kiritish orqali eksport va reeksport qilinayotgan tovarlarning kelib chiqishi toʻgʻrisidagi sertifikatni berish, guvohlantirish orqali tovarlarning kelib chiqish mamlakatini aniqlash maqsadidagi ekspertizafaqat “Oʻzbekekspertiza” AJ va uning boʻlimlari tomonidan oʻtkazilishini nazarda tutuvchi amaldagi tartibni bekor qilish. | 2022-yil iyun | Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Savdo-sanoat palatasi |
| | | 2. Eksport va reeksport qilinayotgan tovarlarning kelib chiqishi toʻgʻrisidagi sertifikatni | 2022-yil iyul | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | berish xizmatlarini koʻrsatuvchi tadbirkorlik subyektlarini akkreditatsiyadan oʻtkazish tartibini va baholash mezonlarini joriy etish boʻyicha Hukumat qarori loyihasini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | | |
| 5. | Qishloq joylarda qishloqlar, ovullar va shahar posyolkalarining bosh rejalarini tuzish | 1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi “2018 — 2022-yillarda aholi punktlarini bosh rejalar bilan ta’minlash, loyiha tashkilotlari faoliyatini yaxshilash, shuningdek, shaharsozlik sohasida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-3502-son qaroriga oʻzgartirish kiritish orqali qishloq joylarda qishloqlar, ovullar va shahar posyolkalarining bosh rejalarini, qishloqlar (ovullar) fuqarolar yigʻinlari hududlarini arxitektura-rejalashtirish jihatidan tashkil etish loyihalarini va ular tarkibida batafsil rejalashtirish loyihalarini hamda ushbu batafsil rejalashtirish loyihalari uchun topogeodeziya xaritalarini ishlab chiqish boʻyicha “Qishloqqurilishloyiha” MChJga berilgan eksklyuziv huquq va vakolatlarni bekor qilish. | 2022-yil iyul | Qurilish vazirligi |
| | | 2. Ushbu faoliyat bilan shugʻullanish vakolatini tanlov asosida barcha loyihalashtirish tashkilotlariga berish tartibini tasdiqlash. | 2022-yil avgust | |
| 6. | Oʻlchash vositalarini qiyoslashdan oʻtkazish | 1. Oʻzbekiston Respublikasining “Metrologiya toʻgʻrisida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-avgustdagi 528-son hamda 2019-yil 20-avgustdagi 698-son qarorlariga tegishli oʻzgartirishlar kiritish orqali:<br>texnik reglamentlar talablariga rioya etilishi va xizmatlar koʻrsatish ustidan davlat nazoratini tashkil etish va amalga oshirish funksiyalarini ajratish; | 2022-yil iyul | Texnik jihatdan tartibga solish agentligi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | o‘lchash vositalarini qiyoslashdan o‘tkazish xizmatlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hisoblanmaydigan yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari tomonidan ko‘rsatilishini ko‘zda tutish. | | |
| | | 2. O‘lchash vositalarini qiyoslashdan o‘tkazish xizmatlarini ko‘rsatish sohasiga akkreditatsiya tizimini va bozor ishtirokchilarini majburiy sug‘urtalashni joriy etish bo‘yicha Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2022-yil iyul | |
| 7. | Elektr texnika uskunalari va qurilmalarini markazlashtirilgan tartibda xarid qilish | 1. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-fevraldagi 111-son qaroriga o‘zgartirish kiritish orqali “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati tizimidagi tashkilotlar buyurtmasiga asosan elektr texnika uskunalari va qurilmalarini, shuningdek, butlovchi buyumlar va sarflash materiallarini hamda import tovarlarini (ishlar, xizmatlar)ni markazlashtirilgan tartibda xarid qilish bo‘yicha “Energo-RES” MChJga berilgan eksklyuziv huquqlarni bekor qilish.<br>2. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tizimidagi tashkilotlar tomonidan elektr texnika uskunalari va qurilmalarini, shuningdek, butlovchi buyumlar v� sarflash materiallarini ochiq tender va tanlov savdolari orqali sotib olish tizimini joriy qilish orqali ushbu tashkilotlarning ortiqcha xarajatlarini kamaytirish. | 2022-yil iyun | Energetika vazirligi, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ |
| 8. | Paxta mahsulotlarini, qishloq xo‘jaligi urug‘larini sertifikatlashtirish | 1. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-fevraldagi “O‘zpaxtasanoat” aksiyadorlik jamiyati korxonalarida ishlab chiqarilgan paxta tolasini sotish va hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 106-son qaroriga o‘zgartirish kiritish orqali paxta tolasi sifatini | 2023 yil yanvar | Texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi, O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | toylari bo‘yicha baholash, uni sertifikatlash hamda paxta tozalash korxonalarida uning og‘irligini tortib ko‘rish, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 575-son qaroriga muvofiq qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘larini sertifikatlash bo‘yicha Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi qoshidagi “Agrosanoat majmuida xizmatlar ko‘rsatish markazi” DUKga berilgan eksklyuziv huquqni bekor qilish. | | klasterlari uyushmasi |
| | | 2. Akkreditatsiya tizimi va bozor ishtirokchilarini majburiy sug‘urtalashni joriy etish orqali quyidagi xizmatlar:<br>paxta mahsulotlarini, qishloq xo‘jaligi urug‘larini sertifikatlashtirish;<br>paxta tolasini sertifikatlash;<br>paxta momig‘ini sertifikatlash;<br>oqartirilgan gigroskopik momiq paxtani sertifikatlash;<br>paxta texnik chigitini sertifikatlash;<br>yog‘lilik ko‘rsatkichini aniqlash;<br>texnik chigitni sifat va xavfsizlik bo‘yicha sertifikatlashtirish;<br>kiyim-kechak va mebelbop momiq paxtani sertifikatlashtirish xizmatlari xususiy sektor subyektlari tomonidan ham amalga oshirilishiga ruxsat berishni nazarda tutuvchi tartibni ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritish. | 2023-yil fevral | |
| 9. | Harbiy majburiyatli shaxslarning, oddiy askarlar hamda boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarning davlat majburiy shaxsiy sug‘urtasi bo‘yicha | 1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 26-yanvardagi “Harbiy xizmatchilar va harbiy majburiyatli shaxslarning, oddiy askarlar hamda boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarning davlat majburiy shaxsiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi 38-son | 2022-yil iyun | Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Moliya vazirligi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | xizmatlar | qaroriga o‘zgartirish kiritish orqali majburiy davlat sug‘urtasi “O‘zbekinvest” eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi (vakil qilingan sug‘urtalovchi) tomonidan o‘tkazilishi bo‘yicha eksklyuziv huquqlarni bekor qilish.<br>2. Sug‘urta kompaniyalarini ushbu sohaga ochiq tanlovlar asosida jalb qilish choralarini ko‘rish. | | |
| 10. | Soliq organlari xodimlarining majburiy davlat sug‘urtasi bo‘yicha xizmatlar | 1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Soliq organlari xodimlarining majburiy davlat sug‘urtasi bo‘yicha sug‘urta summalari va sug‘urta tariflari miqdorlari to‘g‘risida”gi 631-son qaroriga o‘zgartirish kiritish orqali majburiy davlat sug‘urtasi “O‘zbekinvest” eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi (vakil qilingan sug‘urtalovchi) tomonidan o‘tkazilishi bo‘yicha eksklyuziv huquqlarni bekor qilish.<br>2. Sug‘urta kompaniyalarini ushbu sohaga ochiq tanlovlar asosida jalb qilish choralarini ko‘rish. | 2022-yil iyun | Davlat soliq qo‘mitasi, Moliya vazirligi |
| 11. | Qishloq xo‘jaligi va avtomobil shinalari yagona yetkazib beruvchi tomonidan yetkazib berilishi bo‘yicha xizmatlar | Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-apreldagi “Birinchi rezinotexnika zavodi” MChJ faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 350-son qaroriga o‘zgartirish kiritish orqali “Birinchi rezinotexnika zavodi” MChJni qishloq xo‘jaligi va avtomobil shinalarining yagona yetkazib beruvchisi etib belgilash hamda davlat buyurtmachilariga jamiyat mahsulotlarini maxsus ma’lumotlar portalida ro‘yxatdan o‘tkaziladigan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar asosida xarid qilishga ruxsat berish to‘g‘risidagi qoidani bekor qilish. | 2022-yil iyul | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, “O‘zkimyosanoat” AJ |
| **II. Davlat-xususiy sherikchilik shartlari asosida hamda mavjud monopol tashkilotlar tasarrufidan chiqarish orqali xususiy sektorga beriladigan faoliyat turlari** | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 12. | Neft mahsulotlarini saqlash | “O‘zbekneftgaz” AJ tasarrufidagi neft bazalarining neft saqlash infrastrukturalaridan neft mahsulotlarini sotuvchi tadbirkorlik subyektlarining erkin foydalanishini ta’minlash tartibini tasdiqlash, bunda tanlov va davlat-xususiy sherikchilik mexanizmidan foydalanish imkoniyatini yaratish. | 2022-yil iyul | Energetika vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, “O‘zbekneftgaz” AJ, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi |
| 13. | Temir yo‘l transportida yordamchi xizmatlar ko‘rsatish | 1. Milliy transport-ekspeditorlik tashkilotlari tomonidan “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ bilan transport-ekspeditorlik xizmatlarini ko‘rsatish yuzasidan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar tuzishda shartnoma shartlarining “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tomonidan o‘rnatilishiga chek qo‘yish.<br>O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l ma’muriyati (“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ) bilan transport-ekspeditorlik xizmatlarini ko‘rsatish yuzasidan shartnomalar tuzish tartibini Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlash amaliyotini joriy qilish. | 2022-yil sentyabr | Transport vazirligi, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi |
| | | 2. Temir yo‘lda tashishda qo‘shimcha xizmatlar, xususan vagonlar va konteynerlarni yuk jo‘natuvchiga tashish uchun tayyorlash, yuvish, tozala� va ta’mirlash, temir yo‘l tarozilari xizmatlarini ko‘rsatish, yuklarni saralash, qadoqlash va tayyorlash, vagonlarda ovqatlantirish va boshqa xizmatlarni ko‘rsatishda xususiy tadbirkorlarga keng yo‘l ochish to‘g‘risida Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2022-oktabr | |

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son Farmoniga
2-ILOVA

**2022-yil 1-maydan boshlab tarmoqlardagi barcha tadbirkorlik subyektlari uchun tatbiq etiladigan soliq va bojxona imtiyozlari**

RO‘YXATI

| T/r | Imtiyoz berilgan normativ-huquqiy hujjat | Amalda soliq va bojxona imtiyozidan foydalanuvchilar | Tatbiq etilayotgan soliq va bojxona imtiyozi |
|---|---|---|---|
| 1. | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-martdagi "O'zbekipaksanoat" uyushmasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2856-son qarori 7-bandining uchinchi xatboshi | "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tarkibiga kiruvchi tashkilotlar | Bojxona to'lovlari *(bojxona rasmiylashtiruvi yig'imlaridan tashqari)* |
| 2. | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2939-son qarori 16-bandi | "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasi, hududiy "Baliqsanoat" MChJlar va "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasi tarkibiga kiruvchi yuridik shaxslar | Aylanmadan olinadigan soliq |
| 3. | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-yanvardagi "Respublikada ipakchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3472-son qarori 10-bandi | "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tarkibiga kiruvchi tashkilotlar | Bojxona to'lovlari *(qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona rasmiylashtiruvi yig'imlari bundan mustasno)* |
| | | | Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i |
| 4. | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-maydagi "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3693-son qarori 10-bandi | Charm, mo'yna, qorako'l xomashyosi hamda junni yig'ish va tayyorlash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar *(faqat "O'zcharmsanoat" uyushmasi a'zolari — tashkilotlarga sotilganida hamda yalpi tushumning umumiy hajmida ushbu turdagi faoliyatdan tushgan tushumning ulushi hisobot davri natijalari bo'yicha kamida 80 foizni tashkil qilganda)* | Foyda solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, aylanmadan olinadigan soliq |
| 5. | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-dekabrdagi "Respublikada pillachilik tarmog'ini jadal rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4047-son qarori 7-bandi | "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tarkibiga kiruvchi tashkilotlar | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i |
| 6. | Vazirlar Mahkamasining 2019- | Qizilmiya va boshqa | Yuridik shaxslardan olinadigan |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | yil 15-fevraldagi “Qizilmiya va boshqa dorivor o‘simliklarni yetishtirish hamda sanoat usulida qayta ishlashni samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 138-son qarori 9-bandi | dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash tashkilotlari uyushmasining qizilmiya va boshqa dorivor o‘simliklar plantatsiyalarini tashkil etadigan, shuningdek, qizilmiya va boshqa dorivor o‘simliklarni qayta ishlaydigan a’zolari | yer solig‘i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, foyda solig‘i, aylanmadan olinadigan soliq |
| | | | Bojxona to‘lovlari *(qo‘shilgan qiymati solig‘i va bojxona yig‘imlaridan tashqari)* |

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son Farmoniga
3-ILOVA

## Bekor qilinayotgan ayrim soliq va bojxona imtiyozlari

RO‘YXATI

| T/r | Normativ-huquqiy hujjat | Imtiyozdan asosiy foydalanuvchilar | Bekor qilinayotgan imtiyoz |
|---|---|---|---|
| **2022-yil 1-iyuldan** | | | |
| | | 6. Tenderning ikkinchi bosqichini e’lon qilish. | 2023-yil iyun | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 7. Ikkinchi bosqich hujjatlarini qabul qilish va baholash. | 2023-yil noyabr | |
| | | 8. Tender g‘olibini e’lon qilish va tender g‘olibi bilan DXSh to‘g‘risida bitim tuzish. | 2024-yil yanvar | |
| **3.** | Osiyo taraqqiyot banki ko‘magida davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida maktabgacha ta’lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash loyihasini amalga oshirish. | 1. Maktabgacha ta’lim vazirligi va Osiyo taraqqiyoti banki o‘rtasida loyiha doirasida maslahat xizmatini ko‘rsatish to‘g‘risida bitim tuzish. | 2022-yil iyun | Maktabgacha ta’lim vazirligi *(B. Anorboyev),* Moliya vazirligi *(O. Isakov),* Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi *(Z. Bozorov)* |
| | | 2. Loyiha konsepsiyasi va loyihani baholash hujjatlarini ishlab chiqish. | 2022-yil sentyabr | |
| | | 3. Loyiha konsepsiyasini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2022-yil oktyabr | |
| | | 4. Tender hujjatlarini tayyorlab, tenderning birinchi bosqichini e’lon qilish. | 2023-yil yanvar | |
| | | 5. Birinchi bosqich hujjatlarini baholash. | 2023-yil iyun | |
| | | 6. Tenderning ikkinchi bosqichini e’lon qilish. | 2023-yil iyul | |
| | | 7. Ikkinchi bosqich hujjatlarini qabul qilish va baholash. | 2023-yil dekabr | |
| | | 8. Tender g‘olibini e’lon qilish. | 2024-yil mart | |
| **4.** | Osiyo taraqqiyot banki ko‘magida davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida Toshkent shahri va Toshkent viloyatida 16 ta umumta’lim maktabini qurish va jihozlash loyihasini amalga oshirish. | 1. Loyiha konsepsiyasi va loyihani baholash hujjatlarini ishlab chiqish. | 2022-yil may | Xalq ta’limi vazirligi *(B. Saidov),* Toshkent shahar hokimligi *(J. Artikxodjayev),* Toshkent viloyati hokimligi *(Z. Mirzayev),* Moliya vazirligi *(O. Isakov),* Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi *(Z. Bozorov)* |
| | | 2. Loyiha konsepsiyasini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2022-yil iyun | |
| | | 3. Tender hujjatlarini tayyorlab, tenderning birinchi bosqichini e’lon qilish. | 2022-yil iyul | |
| | | 4. Birinchi bosqich hujjatlarini baholash. | 2022-yil oktyabr | |
| | | 5. Tenderning ikkinchi bosqichini e’lon qilish. | 2022-yil noyabr | |
| | | 6. Ikkinchi bosqich hujjatlarini qabul qilish va baholash. | 2023-yil mart | |
| | | 7. Tender g‘olibini e’lon qilish. | 2023-yil may | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **5.** | Tashabbuskor kompaniyalar ko'magida umumta'lim maktablarini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida qurish va jihozlash loyihasini amalga oshirish. | 1. Xalq ta'limi vazirligi va tashabbuskor kompaniyalar o'rtasida loyiha doirasida maslahat xizmatini ko'rsatish to'g'risida bitim tuzish. | 2022-yil iyun | Xalq ta'limi vazirligi *(B. Saidov),* Moliya vazirligi *(O. Isakov),* Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi *(Z. Bozorov)* |
| | | 2. Loyiha konsepsiyasi va loyihani baholash hujjatlarini ishlab chiqish. | 2022-yil sentyabr | |
| | | 3. Loyiha konsepsiyasini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2022-yil oktyabr | |
| | | 4. Tender hujjatlarini tayyorlab, tenderning birinchi bosqichini e'lon qilish. | 2023-yil yanvar | |
| | | 5. Birinchi bosqich hujjatlarini baholash. | 2023-yil iyun | |
| | | 6. Tenderning ikkinchi bosqichini e'lon qilish. | 2023-yil iyul | |
| | | 7. Ikkinchi bosqich hujjatlarini qabul qilish va baholash. | 2023-yil dekabr | |
| | | 8. Tender g'olibini e'lon qilish va tender g'olibi bilan DXSh to'g'risida bitim tuzish. | 2024-yil mart | |
| **6.** | Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va boshqa tashkilotlar ko'magida davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida oliy ta'lim muassasalari uchun talabalar turarjoylarini qurish loyihasini amalga oshirish. | 1. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki o'rtasida loyiha doirasida maslahat xizmatini ko'rsatish to'g'risida bitim tuzish. | 2022-yil iyun | Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi *(S. Buzrukxonov),* Moliya vazirligi *(O. Isakov),* Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi *(Z. Bozorov)* |
| | | 2. Loyiha konsepsiyasi va loyihani baholash hujjatlarini ishlab chiqish. | 2022-yil avgust | |
| | | 3. Loyiha konsepsiyasini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2022-yil sentyabr | |
| | | 4. Tender hujjatlarini tayyorlab, tenderning birinchi bosqichini e'lon qilish. | 2022-yil dekabr | |
| | | 5. Birinchi bosqich hujjatlarini baholash. | 2023-yil fevral | |
| | | 6. Tenderning ikkinchi bosqichini e'lon qilish. | 2023-yil aprel | |
| | | 7. Ikkinchi bosqich hujjatlarini qabul qilish va baholash. | 2023-yil may | |
| | | 8. Tender g'olibini e'lon qilish. | 2023-yil iyun | |

| VII. Suv xo'jaligi sohasi | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **1.** | Tashabbuskor kompaniyalar ko'magida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi nasos stansiyalarini muqobil energiya bilan ishlatish bo'yicha davlat-xususiy sheriklik loyihasini bilan amalga oshirish. | 1. Loyihani o'rganib chiqish va uni amalga oshirish yuzasidan tashabbuskor kompaniyalar bilan muzokaralar olib borish. | 2022-yil may | Suv xo'jaligi vazirligi *(A. Nazarov),* Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi *(K. Sariyev),* Buxoro viloyati hokimligi *(B. Zaripov),* Jizzax viloyati hokimligi *(E. Saliyev),* Qashqadaryo viloyati hokimligi *(M. Azimov),* Sirdaryo viloyati hokimligi *(G. Mirzayev)*, Surxondaryo viloyat hokimligi *(T. Bobolov)* |
| | | 2. Dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash hujjatlarini ishlab chiqish. *(Loyihaning amalga oshirilishi o'rganish va muzokaralar natijalariga bog'liq)* | 2022-yil sentyabr | |

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son Farmoniga
8-ILOVA

## Tadbirkorlik muhitini yaxshilash, xususiy sektorni rivojlantirish, davlat ishtirokidagi korxonalarning faoliyatini isloh qilish va xususiylashtirishga tayyorlash jarayonlarini tashkil etish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi ishchi guruh

TARKIBI

| | | |
|---|---|---|
| A.N. Aripov | — | O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, *Ishchi guruh rahbari* |
| J.A. Qo'chqorov | — | O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari — iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vaziri, *Ishchi guruh rahbari o'rinbosari* |
| A.J. Ramatov | — | O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari |
| S.U. Umurzakov | — | O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari — investitsiyalar va tashqi savdo vaziri |
| Sh.M. G'aniyev | — | O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari |
| A.J. Ortikov | — | O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori |
| *Lavozimiga ko'ra* | — | O'zbekiston Respublikasi energetika vaziri |
| I.R. Mahkamov | — | O'zbekiston Respublikasi transport vaziri |
| O.Z. Nasritdinxodjayev | — | O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining birinchi o'rinbosari |
| A.B. Voitov | — | O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirining birinchi o'rinbosari |
| Sh.Sh. Sharaxmetov | — | O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi |
| B.Q. Abdinazarov | — | O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirining o'rinbosari |
| B.Sh. Usmonov | — | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining o'rinbosari, *Ishchi guruh kotibi* |

Izoh. Ishchi guruh a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son Farmoniga
9-ILOVA

**Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda xususiy sektorning rolini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar rejasi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

| T/r | Chora-tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmi | Amalga oshirish shakli | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **I. Xususiylashtirish va transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, investitsion muhit jozibadorligini oshirish** | | | | | |
| 1. | Davlat aktivlarini xususiylashtirishda investorlarga qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratish. | Davlat aktivlari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotilganda kamida 35 foiz miqdordagi dastlabki to‘lovni bir yo‘la amalga oshirgan xaridorlarga mazkur davlat aktivlari va yer uchastkalarini kredit ta’minoti sifatida garovga qo‘yish huquqini berish bo‘yicha tartibni ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. Bunda xaridor tomonidan to‘lovning qolgan qismini to‘lash bo‘yicha majburiyatlar, to‘lovga qobiliyatliligi, xususan ta’minotni kafolatlashi inobatga olinadi. | Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi | 2022-yil 1-may | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi |
| 2. | Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini shaffof tarzda xususiylashtirish imkoniyatlaridan foydalanish hamda yerlarning jozibadorligini oshirish uchun infratuzilma va boshqa zarur | Xalqaro va mahalliy developer va boshqa konsalting tashkilotlarini jalb qilib, batafsil rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqqan holda, bo‘sh yer uchastkalarida ishlab chiqarish va | Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi | 2022-yil 1-may | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Davla� soliq qo‘mitasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | sharoitlarni yaratib berish. | xizmat ko'rsatish obyektlarini qurish uchun ularni tayyor biznes sifatida lotlarga bo'lib sotish tartibini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.<br>Bunda:<br>hududlarni kompleks rivojlantirish dasturlari, shuningdek, alohida sohalar va tarmoqlarni rivojlantirish dasturlari, master-rejalar hamda shaharsozlik talablaridan kelib chiqqan holda, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan alohida bo'sh yer uchastkalari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bino-inshootlarini qurish uchun tayyor biznes sifatida lotlarga bo'lingan holda elektron onlayn-auksion savdolari orqali mulk (ijara) huquqi bilan sotilishi mumkin;<br>master-reja, loyiha konsepsiyasi, uning texnik iqtisodiy asoslari va loyiha-smeta hujjatlari ochiq tanlov savdolari orqali jalb etiladigan ixtisoslashgan loyiha tashkilotlari tomonidan ishlab chiqiladi;<br>yer uchastkalari tayyor biznes loyihalari bilan | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | lotlarga bo‘lingan holda shaharsozlik talablari va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish imkoniyatidan kelib chiqib, mulk huquqi va/yoki ijara huquqi asosida “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali sotiladi. | | | |
| 3. | Xorijiy investorlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida ko‘chmas mulk xarid qilish huquqiga bo‘lgan byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish. | Xorijiy investorlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida ko‘chmas mulk xarid qilish bitimlarini notarial tasdiqlash tartibini qayta ko‘rib chiqish, shu jumladan yashash guvohnomasini taqdim etish haqidagi talabni bekor qilish.<br>Bunda akkreditatsiya kartochkasiga ega bo‘lgan xorijiy kompaniyalar doimiy vakolatxonalari xodimlari bo‘lgan chet el fuqarolari respublika hududidan uy-joy sotib olishi mumkinligi to‘g‘risidagi tartibni bekor qilish. | Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari | 2022-yil 1-may | Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi |
| 4. | Sud boshqaruvchilarini tayinlash tizimini takomillashtirish. | To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarni olib borish uchun sud boshqaruvchisini tayinlash bo‘yicha shaffof tizim joriy etish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish. | Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi | 2022-yil 1-may | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Oliy sud |
| 5. | To‘lovga | “To‘lovga | Tashkiliy | 2022-yil | Davlat aktivlarini |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | qobiliyatsizlik sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini takomillashtirish. | qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni rasmiy e’lon qilinganidan so‘ng, uni amaliyotga tatbiq etish va ushbu sohada Davlat aktivlarini boshqarish agentligining va�olatlarini amalga oshirish bo‘yicha vertikal tizimni qayta ko‘rib chiqib, uning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish. | chora-tadbirlar rejasi | 1-may | boshqarish agentligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi |
| 6. | Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish sohalarida raqobatni yanada rivojlantirish, mazkur sohalarda xususiy sektorning rivojlanishi uchun qulay huquqiy va moliyaviy shart-sharoitlar yaratish. | Tabiiy gaz va elektr energiyasini “yagona xarid qiluvchi” funksiyasini magistral tarmoqlarni ekspluatatsiya qilish funksiyasidan ajratish bo‘yicha qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi | 2022-yil 1-may | Moliya vazirligi, Energetika vazirligi |
| 7. | “O‘ztransgaz” AJ moliyaviy hujjatlarini tartibga solish, hisobotlarini xalqaro standartlar asosida tayyorlash. | 1. “O‘ztransgaz” AJning barcha moliyaviy hujjatlarini tartibga keltirish hamda tabiiy gaz bo‘yicha debitor va kreditor qarzdorliklarni xatlovdan o‘tkazib, ularni qisqartirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga asoslantirilgan takliflar kiritish. | Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi | 2022-yil 1-iyun | Hisob palatasi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi |
| | | 2. Xalqaro konsalting tashk�lotlari ko‘magida “O‘ztransgaz” | Moliyaviy hisobotlar | 2022-yil 1-avgust | Moliya vazirligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | AJning 2018 — 2020-yillar uchun moliyaviy hisobotlari xalqaro standartlar (IFRS) asosida tayyorlanishini ta’minlash. | | | |
| 8. | Gidroelektrostansiyalarni qurish jarayoniga xususiy sektorni jalb etish. | Xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilish orqali quriladigan gidroelektrostansiyalar bo‘yicha: | Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi | | Energetika vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish v�zirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, “O‘zbekgidroenergo” AJ |
| | | 2022-yil uchun ularning nomma-nom ro‘yxatini Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritilishini; | | 2022-yil 1-may | |
| | | har yili 1-dekabrgacha bo‘lgan muddatda kelgusi yil uchun yangi ro‘yxat e’lon qilib borilishini ta’minlash. | | Har yili 1-dekabr | |
| 9. | Korxonani rivojlantirish siyosati va Xususiylashtirish strategiyasini ishlab chiqish. | 1. Neft-gaz va energetika sohasidagi davlat ishtirokidagi korxonalarda Korxonani rivojlantirish siyosati va Xususiylashtirish strategiyasini ishlab chiqish uchun jalb etiladigan professional tashkilotlarga qo‘yiladigan talablar bo‘yicha texnik vazifani ishlab chiqib, tasdiqlash uchun Davlat tender komissiyasiga kiritish. | Texnik vazifa | 2022-yil 1-may | Energetika vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi |
| | | 2. Korxonani rivojlantirish siyosati va Xususiylashtirish strategiyasi ishlab chiqilishini ta’minlash. | Ichki hujjatlar | 2022-yil 1-iyul | |
| 10. | Davlat organlari va tashkilotlari bino- | 1. Davlat organlari, | Vazirlar Mahkamasi | 2022-yil 1-iyun | Davlat aktivlarini boshqarish |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | inshootlaridan samarali foydalanishni ta'minlash. | muassasalari va korxonalari hamda ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari xodimlarini ma'muriy binolarda joylashtirish me'yorlarini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.<br>Bunda, Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga ushbu me'yorlardan kelib chiqqan holda davlat organlari, muassasalari va korxonalari hamda ularning hududlardagi tarkibiy bo'linmalarini samarali joylashtirish bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish vakolati berilishini nazarda tutish. | qarori loyihasi | | agentligi, Moliya vazirligi, Qurilish vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi |
| | | 2. "Davlat mulki" axborot tizimini takomillashtirib, tegishli vazirlik va idoralar axborot tizimlari bilan elektron ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yish. | Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi | 2022-yil 1-iyul | |
| **II. Iqtisodiyotda raqobat muhitini yanada yaxshilash va xususiy sektor oldida�i byurokratik to'siqlarni qisqartirish** | | | | | |
| 11. | Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish. | Quyidagilarni nazarda tutuvchi yangi tahrirdagi "Raqobat to'g'risida"gi qonun loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritish: | Qonun loyihasi | 2022-yil 1-iyul | Vazirlar Mahkamasi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Adliya vazirligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | tarmoq va sohalarda sog‘lom raqobat muhitini yaratish va monopoliyalarning salbiy ta’sirini kamaytirish;<br>raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablarini buzganlik, shu jumladan monopol yuqori narxlarni o‘rnatish, ijtimoiy va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan mahsulotlar narxlarini asossiz oshirganlik va boshqa holatlar uchun javobgarlik choralarini hamda monopoliyaga qarshi kurashish organining bu boradagi vakolatlarini kuchaytirish;<br>ilg‘or xalqaro tajribadan kelib chiqib raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun tovar (ish, xizmat)ning realizatsiyasidan tushgan tushum summasiga bog‘langan holda moliyaviy jarimalar miqdorini belgilash;<br>turli imtiyozlar ko‘rinishidagi davlat ko‘magini tartibga solish;<br>tabiiy monopoliya sohalari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bozorlarda raqobat muhitini ta’minlash;<br>monopoliyaga qarshi organ | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | faoliyatini alohida moliyalashtirish mexanizmi va boshqalar. | | | |
| 12. | Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlikni kuchaytirish. | 1. Quyidagi harakatlar uchun ma’muriy javobgarlikni kuchaytirish:<br>davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan xomashyo, tovarlar va xizmatlarning erkin harakatlanishi va realizatsiya qilinishini (ko‘rsatilishini) noqonuniy cheklash;<br>litsenziyalash, ro‘yxatga olish, akkreditatsiyadan o‘tkazish va ruxsat berish vakolati berilgan davlat unitar korxonalari yoki muassasalari, yuridik shaxslar birlashmalari tomonidan raqobatni cheklaydigan qarorlar qabul qilish;<br>monopoliyaga qarshi organ talabiga ko‘ra zarur hujjat va axborotlarni taqdim etmaslik, noto‘g‘ri yoki yolg‘on ma’lumotlar taqdim etish, monopoliyaga qarshi organning ko‘rsatma, ogohlantirish va taqdimnomalarini bajarishdan bo‘yin tovlaganlik yoki o‘z vaqtida bajarmaganlik, shuningdek, uning faoliyatiga aralashganlik hamda to‘sqinlik qilish. | Qonun loyihasi | 2022-yil 1-iyul | Vazirlar Mahkamasi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi, Adliya vazirligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 2. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini buzishga doir ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi ishlarni monopoliyaga qarshi organ tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rib chiqish. | | | |
| 13. | Mustaqil bozor regulyatorlari institutini joriy qilish. | 1. Ilg‘or rivojlangan davlatlar, shu jumladan Germaniya va Buyuk Britaniya tajribasidan kelib chiqib, birinchi navbatda, tarmoq infratuzilmasi bilan bog‘liq va monopollashgan tovar bozorlarida (energetika, telekommunikatsiya, temir yo‘llar va boshqa) mustaqil bozor regulyatorlari institutini joriy qilish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish Kengashini tuzishni nazarda tutuvchi Qaror loyihasini kiritish.<br>Bunda, mustaqil bozor regulyatorlarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilanishini nazarda tutish:<br>raqobat muhitini rivojlantirish;<br>iste’molchilar huquqlarini himoya qilish;<br>tarmoqlar va infratuzilmalardan teng va adolatli foydalanish imkoniyatini | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi | 2022-yil 1-dekabr | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi, Moliya vazirligi, vazirlik va idoralar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | ta'minlash; tabiiy monopoliyalarni tartibga solish; bozor ishtirokchilarining yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuziladigan shartnomalarida kamsituvchi va cheklovchi normalarni bartaraf etish. | | | |
| 14. | Iqtisodiyotda raqobat muhiti holatini baholash tizimini joriy qilish. | Xalqaro moliya institutlari hamda yetarli tajribaga ega ilg'or xalqaro konsalting kompaniyalarini jalb qilga� holda, 2023-yil 1-yanvardan boshlab Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tomonidan har yili Oliy Majlis Senatiga axborot beriladigan Raqobat rivojlanishi indeksini joriy qilish, uni yuritish tartibi, metodologiyasini ishlab chiqish vatasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish. Mazkur indeksda, shu jumladan tovar va moliya bozorlaridagi raqobat muhiti, mazkur bozorlarga kirish uchun to'siqlarning bartaraf etilganligi, energiya resurslaridan ishonchli va barqaror foydalanish imkoniyati hamda ushbu resurslar bilan ta'minlanganlik, | Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi | 2022-yil 1-dekabr | Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | xususiy mulk daxlsizligi va yer munosabatlarining rivojlanganligi, transport va kommunikatsiya tarmoqlaridan (shu jumladan, internet) foydalanish, muqobil transport vositalarining o‘zaro bog‘liqligi (connectivity) va rivojlanganligi, shu jumladan logistika samaradorligi kabi asosiy baholash yo‘nalishlarini nazarda tutish. | | | |
| 15. | Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi huzurida Raqobat siyosati va tabiiy monopoliyalar muammolari tadqiqotlar markazini tashkil etish. | Quyidagi vazifalarni amalga oshiradigan Raqobat siyosati va tabiiy monopoliyalar muammolari tadqiqotlar markazini tashkil etish bo‘yicha qaror loyihasini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish:<br>tovar va moliya bozorlari hamda iqtisodiyot tarmoqlarida raqobat muhitini tahlil qilish bo‘yicha tadqiqotlarni o‘tkazish;<br>raqobat siyosatini takomillashtirish bo‘yicha fundamental ilmiy-amaliy tadqiqotlar o‘tkazish;<br>tabiiy monopoliya sohalarini tubdan isloh qilish bo‘yicha strategik tak??flar va dasturlar tayyorlash;<br>kadrlar malakasi | Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi | 2022-yil 1-iyun | Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | va salohiyatini tizimli oshirish. | | | |
| 16. | Iqtisodiy islohotlar ta’sirini o‘rganish va baholash tizimini takomillashtirish. | Iqtisodiyot sohasida qabul qilinayotgan qarorlar va amalga oshirilayotgan islohotlarning mahalliy va xorijiy tadbirkorlar faoliyatiga va ularning kutilmalariga bo‘lgan ta’sirini tizimli ravishda o‘rganish va baholab borish maqsadida ixtisoslashgan “Call-markaz” tashkil etish to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish. | Tashkiliy chora-tadbirlar | 2022-yil 1-may | Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti, Moliya vazirligi, Davlat statistika qo‘mitasi |
| 17. | Bojxona kodeksining yangi tahririni ishlab chiqish. | 1. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining yangi tahrirdagi loyihasini tayyorlashda va O‘zbekiston Respublikasi bojxona tizimini isloh qilishda texnik jihatdan ko‘maklashishni ta’minlash uchun Jahon banki bilan o‘zaro hamkorlikni tashkil etish. | Texnik ko‘mak | 2022-yil 1-may | Moliya vazirligi, Davlat bojxona qo‘mitasi |
| | | 2. Jahon banki va boshqa moliya institutlari ekspertlari, xalqaro bojxona ishi sohasida amaliy tajribaga ega bo‘lgan ekspertlar hamda biznes vakillarini jalb qilgan holda ishchi guruh tashkil etish. | Ishchi guruh | 2022-yil 15-may | Davlat bojxona qo‘mitasi, Moliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar |
| | | 3. Bojxona kodeksining tarkibini hamda asosiy | Tahliliy materiallar | 2022-yil 1-oktabr | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | yo'nalishlarini belgilash. | | | |
| | | 4. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqib, jamoatchilik muhokamasiga qo'yish. | Tashkiliy chora-tadbirlar | 2023-yil 1-may | |
| | | 5. Loyihani Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | Qonun loyihasi | 2023-yil 1-avgust | |
| **III. Pul va kapital bozorlarini yanada erkinlashtirish hisobiga moliya bozoridagi turli segmentlarni rivojlantirish** | | | | | |
| 18. | Kreditlarni qoplash bo'yicha kompensatsiyalar ajratish tizimini takomillashtirish. | Tijorat banklari kreditlarining bir qismini qoplash bo'yicha ajratiladigan kompensatsiyalarni tahlil qilish va ularni taqdim etish tartibini takomillashtirish bo'yicha taklif kiritish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2022-yil 1-iyul | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi |
| 19. | Xorijiy investitsiyalarni moliya bozoriga faol jalb qilish va mamlakatimiz kapital bozoriga investorlarning kirish imkoniyatlarini yengillashtirish. | Quyidagilar nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish:<br>O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar ma'lumotlarini identifikatsiya qilish maqsadida elektron integratsiyalashgan tizimdan foydalanish huquqi berish;<br>O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarning ma'lumotlarini identifikatsiya qilishda ulardan real va�t rejimida | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2022-yil 1-dekabr | Moliya vazirligi, "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" DUK, Davlat personallashtirish markazi, Davlat xizmatlari agentligi, Bosh prokuratura, Davlat soliq qo'mitasi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | olingan hujjatlar, fotosurat yoki videotasvirni dastlabki identifikatsiya ma'lumotlari bilan elektron solishtirish orqali shaxsini tekshirish va tasdiqlash jarayonini keng joriy etish, shuningdek, investitsiya vositachilari bilan shartnoma tuzish paytida ularning shaxsiy ma'lumotlarini olish maqsadida "O'z mijozingni bil" (KYC) va "Daromadni legallashtirishga qarshi kurashish" (AML) tizimlariga muvofiq mijozlarni tekshirish usullarini joriy qilish;<br>xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan hamkorlikda benefitsiar mulkdorlarni aniqlashga oid platformalardan foydalanish bo'yicha o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish imkoniyatini o'rganish va Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;<br>jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish xavfi mavjud bo'lgan | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | shubhali operatsiyalar to‘g‘risida xabar berish, to‘xtatish, xizmat ko‘rsatishni rad etishga oid ichki nazorat qoidalarini tasdiqlash. | | | |
| 20. | Islom moliyalashtirish tamoyillariga asoslangan qimmatli qog‘ozlarni, jumladan “Sukuk” obligatsiyalarini joriy etish tajribasini o‘tkazish va natijalari bo‘yicha me’yoriy-huquqiy asoslarni ishlab chiqish. | 1. Investorlarni, xususan islom tamoyillariga asoslangan moliya bozoriga rioya qiluvchi aholi qatlamini va xorijiy investitsion fondlarni kapital bozoriga keng jalb qilish maqsadida 2022-2023-yillarda eksperiment tariqasida xalqaro qonunchilik va standartlarga mos keladigan davlat yoki korporativ “Sukuk” obligatsiyalarini fond bozorlarida joylashtirish choralarini ko‘rish. | Tashkiliy chora-tadbirlar | 2023-yil 1-dekabr | Moliya vazirligi |
| | | 2. Mazkur sinov natijasidan kelib chiqib, islom moliyalashtirish tamoyillariga asoslangan qimmatli qog‘ozlar, shu jumladan “Sukuk” obligatsiyalarini joriy etish bo‘yicha milliy qonunchilikka tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish. | Qonun loyihasi | | |
| 21. | Kapital harakati bilan bog‘liq valyuta operatsiyalarini bosqichma-bosqich erkinlashtirish. | Xalqaro moliya tashkilotlari hamkorligida quyidagilarni nazarda tutuvchichora-tadbirlarni ishlab chiqib, tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga | Chora-tadbirlar rejasi | 2022-yil 1-iyun | Markaziy bank, Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | kiritish: davlat qimmatli qog‘ozlari bozorida norezidentlarning qatnashishi bo‘yicha shaffof qoidalarni belgilash va mavjud barcha cheklovlarni bekor qilish; amaldagi chet elga investitsiya maqsadlarida o‘tkazilishiga ruxsat berilgan mablag‘lar miqdorini va transchegaraviy kapital oqimlari bilan bog‘liq amaliyotlarni xalqaro tajriba asosida qayta ko‘rib chiqish; norezidentlar tomonidan O‘zbekistonda aktivlarni sotib olish va sotish hamda boshqa kapital harakati bilan bog‘liq valyuta operatsiyalariga ruxsat berish. | | | |
| 22. | Tijorat banklarida korrupsion xavf-xatarlarni aniqlash va bartaraf etish. | Ilg‘or xalqaro tajribani chuqur o‘rgangan holda, tijorat banklarida korrupsion xavf-xatarlarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va uni kamaytirish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish uchun raqamli monitoring tizimni yo‘lga qo‘yish, bunda: korrupsion xavf-xatarlarni baholash metodologiyasini ishlab chiqish; korrupsiya bilan bog‘liq holatlarni oldindan aniqlashga | Chora-tadbirlar rejasi | 2022-yil 1-iyul | Moliya vazirligi, Markaziy bank |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | qaratilgan indikatorlar tizimini, tartib-tamoillarini joriy qilish;<br>banklarning barcha xizmatlari bo‘yicha korrupsion xavf-xatarlarni baholash va aniqlangan risklarni kamaytirish choralariga ?lohida e’tibor qaratish. | | | |
| 23. | Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan maxsus hisobvaraqlardan foydalanish amaliyotini bekor qilish. | Tijorat banklarida barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan maxsus hisobvaraqlardan foydalanish amaliyotini bekor qilish.<br>Bunda, davlat ahamiyatidagi strategik vazifalar ijrosiga yo‘naltirilgan mablag‘larni boshqarish uchun bosqichma-bosqich 2023-yil yakuniga qadar Yagona g‘azna hisobvarag‘ida shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari ochish hamda Moliya vazirligi G‘aznachiligi tomonidan xizmat ko‘rsatish. | Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari | 2022-yil 1-iyul | Davlat soliq qo‘mitasi, Moliya vazirligi, Markaziy bank |
| **IV. Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarida korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini keng joriy etish, xaridlar tizimi shaffofligini ta’minlash orqali korrupsiyaning oldini olish** | | | | | |
| 24. | Davlat boshqaruvi, korporativ boshqaruv kadrlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish. | 1. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagiBiznes va tadbirkorlik oliy maktabi (keyingi o‘rinlarda — Oliy maktab)da Koreya Respublikasining Toshkent shahridagi | Chora-tadbirlar rejasi | 2022-yil 1-iyun | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, davlat organlari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Adju universiteti bilan hamkorlikda magistratura ta'lim shakli bo'yicha qo'shma ta'lim dasturini hamda kadrlar malakasini oshirish bo'yicha qisqa muddatli kurslarni yo'lga qo'yish. | | | |
| | | 2. Davlat boshqaruvi organlari xodimlariningdavlat boshqaruvi, korporativ boshqaruv va boshqa yo'nalishlar bo'yicha malaka oshirishini tashkil etish. | Reja-grafik | Doimiy | |
| | | 3. Davlat organlari, xo'jalik birlashmalari, davlat va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari xodimlarini tashkil etiladigan magistratura dasturlarida o'qishga jalb etish. | Tashkiliy chora-tadbirlar | Doimiy | |
| 25. | Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini keng joriy etish. | Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga quyidagilarni joriy etish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish:<br>har chorakda ijro organining hisobotini eshitish bo'yicha kuzatuv kengashining majlislarini sirtdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) o'tkazishga yo'l qo'ymaslik;<br>2022-yil yakuniga qadar transformatsiya | Tashkiliy chora-tadbirlar, ichki korporativ hujjatlar | 2022-yil 1-may | Moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | qilinadigan davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a’zolar, shu jumladan xorijiy mutaxassislarni jalb etish;<br>ijro organi rahbari va boshqaruv a’zolarining harakati (harakatsizligi) natijasida korxona manfaatlariga yetkazilgan har qanday zarar, ziyon, ularning oqibatida yuzaga keluvchi jarima, penya va boshqa majburiy to‘lovlar uchun ushbu shaxslarning subsidiar javobgarligini ular bilan tuziladigan mehnat shartnomalarida qat’iy belgilash. | | | |
| 26. | Davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi va ijroiya organi a’zolari mehnatiga haq to‘lash tizimini takomillashtirish | 1. Vazirlar Mahkamasiga quyidagilarni nazarda tutuvchi qaror loyihasini ishlab chiqib, kiritish:<br>mehnatga haq to‘lashning yagona rag‘batlantirish siyosati asosida oylik ish haqi va yil yakunlari bo‘yicha bir yo‘la to‘lanadigan mukofot to‘lovlarini to‘lash. Bunda boshqa har qanday qo‘shimcha to‘lov turlarini bekor qilish;<br>kuzatuv kengashi va ijroiya organiga to‘lanadigan haq miqdorini tegishincha aksiyadorlar umumiy | Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi | 2023-yil 1-yanvar | Moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | yig‘ilishi va kuzatuv kengashi tomonidan belgilash;<br>biznes-reja ko‘rsatkichlari bajarilmagan yoki samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari “past” yoki “qoniqarsiz” deb baholangan taqdirda Kuzatuv kengashi qaroriga asosan ijro organi tomonidan o‘tgan hisobot yilida to‘langan mukofotni to‘liq jamiyatga qaytarish. | | | |
| 27. | Davlat ishtirokidagi korxonalarning yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini jadallashtirish. | Transformatsiya qilinadigan davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari sifatida yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni, shu jumladan kelajakda xalqaro savdo va moliya bozorlariga chiqishda ko‘mak beruvchi ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) hisobdorlik tizimlarini joriy etish bo‘yicha ilg‘or xorij tajribasini o‘zlashtirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish. | Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi | 2022-yil 1-may | Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi |
| 28. | Kuzatuv kengashining mustaqil a’zolarini tayyorlash va ular reyestrini yuritish tizimini takomillashtirish. | Ilg‘or top-menejerlar, ekspertlar, xalqaro moliya tashkilotlari, kuzatuv kengashining mustaqil a’zolari tomonidan quyidagi funksiyalarni amalga | Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi | 2022-yil 1-iyun | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Adliya vazirligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | oshiruvchi Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari assotsiatsiyasini tashkil etish bo'yicha amaliy choralar ko'rish:<br>respublikadagi xo'jalik jamiyatlari kuzatuv kengashlarining mustaqil a'zolari milliy reyestrini yaratish va yuritish;<br>korxonalar boshqaruv organlari a'zolarining ochiq reytingini yuritish;<br>mustaqil direktorlarning xorijiy uyushmalar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish;<br>kuzatuv kengashi mustaqil a'zolari uchun Kasbiy odob-axloq kodeksini ishlab chiqish va tasdiqlash;<br>kuzatuv kengashi mustaqil a'zolari uchun o'quv dasturini ishlab chiqib, o'quv kurslarini tashkil etish. | | | |
| 29. | Issiqlik ta'minoti, ichimlik va oqova suv tizimlarini yaxshilash sohasida davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida loyihalarni amalga oshirish. | Markazlashgan issiqlik ta'minoti, ichimlik va oqova suv tizimlarini yaxshilash, shaffoflikni ta'minlash hamda sohalarga yo'naltirilayotgan budjet mablag'larini samarali ishlatish maqsadida, ushbu yo'nalishlarda davlat-xususiy sherik�ik tamoyili asosida loyihalarni | Ro'yxat | 2022-yil 1-may | Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, "O'zsuvta'minot" AJ, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | keng joriy qilish uchun amalga oshiriladigan loyihalar ro‘yxatini shakllantirib, tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.<br>Bunda, shahar va tumanlarning issiqlik, ichimlik suv va oqova suv ta’minoti tizimiga xususiy sektorni jalb qilish orqali ushbu sohalarni moliyaviy faoliyatini foyda bilan yuritadigan biznesga aylantirish, tarif siyosatini takomillashtirish orqali budjetdan ajratiladigan subsidiyalar miqdorini bosqichma-bosqich kamaytirish hamda besh yil ichida subsidiyalar o‘rniga ssudalar ajratish amaliyoti joriy etiladi. | | | |
| 30. | Davlat tashqi qarzi hisobiga amalga oshirilgan investitsiya loyihalari samaradorligi va natijadorligini o‘rganish. | Mustaqil auditorlik kompaniyasini ochiq tanlov asosida jalb qilgan holda, yirik tarmoq korxonalari tomon�dan so‘nggi 5 yil davomida davlat tashqi qarzi hisobiga amalga oshirilgan investitsiya loyihalari samaradorligi va natijadorligini baholashni tashkillashtirib, natijasi bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini O‘zbekiston Respublikasi | Chora-tadbirlar dasturi | 2022-yil 15-dekabr | Moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Prezidenti Administratsiyasiga kiritish. | | | |
| **V. Iqtisodiyot tarmoqlarini zarur xomashyo va resurslar bilan barqaror ta’minlash** | | | | | |
| 31. | Yer qa’ridan foydalanish samaradorligini oshirish. | 1. Mahalliy va xorijiy investorlarga taklif etiladigan strategik turdagi foydali qazilma konlari va istiqbolli maydonlarini viloyatlar kesimida tasniflash hamda ularni ochiq va shaffof mexanizmlar (onlayn-auksion, tender) asosida foydala�ishga berish yuzasidan aniq takliflarni ishlab chiqish.<br>Joriy yilda auksion savdolari orqali savdoga chiqariladigan noruda foydali qazilma kon uchastkalari dasturini tasdiqlash. | Qaror | Bir oy muddatda | Davlat geologiya qo‘mitasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, Davlat ekologiya qo‘mitasi |
| | | 2. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki takliflari asosida ishlab chiqilgan “yunior” korxonalarni geologiya-qidiruv va konlarni o‘zlashtirishga jalb qilish va ular uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutuvchi normalar qonun hujjatlariga kiritilishini ta’minlash. | Normativ-huquqiy hujjat | To‘rt oy muddatda | |
| | | 3. Ishchi guruhni tuzish. | Ishchi guruh | 2022-yil 1-may | |
| | | 4. Quyidagi masalalarni o‘rganib chiqib, Vazirlar | Tahliliy ma’lumotlar | 2022-yil 1-iyun | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Mahkamasiga ma’lumot kiritish:<br>konlarni ekspluatatsiya qilish va yopilgan konlarni rekultivatsiya qilishning tasdiqlangan texnik-iqtisodiy asosnomalarga va texnik me’yorlarga muvofiqligi;<br>hosildor qatlam va ma’danlarda minerallar tarkibining mutanosibligi, ajratib olishda va texnogen mineral hosilalarga hisobdan chiqarishda texnologik reglamentlarga rioya qilinayotganligi;<br>suv resurslaridan oqilona foydalanilayotganligi. | | | |
| | | 5. O‘rganish natijalari bo‘yicha belgilangan talablarga rioya etmaslik ehtimoli yuqori bo‘lgan yer qa’ridan foydalanuvchi davlat ishtirokidagi korxonalarda mustaqil texnik va ekologik audit o‘tkazish uchun tanlov asosida xalqaro konsalting kompaniyalarini jalb qilish.<br>Bunda, mutasaddi vazirlik va idoralar vakillarini jalb qilgan holda, tanlovlarni tashkil qilish tadbirlari hamda mustaqil texnik va ekologik audit | Tanlov | 2022-yil 1-iyul | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | o‘tkazish xarajatlari yer qa’ridan foydalanuvchi davlat ishtirokdagi korxonalar tomonidan va ular hisobiga ta’minlanishi belgilab qo‘yilsin. | | | |
| | | Mustaqil texnik va ekologik audit xulosalari asosida respublikadagi barcha yer qa’ridan foydalanuvchilar yer qa’ri va suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha faoliyatini xalqaro standartlarga mos ravishda doimiy ravishda monitoring o‘tkazib borishning yangi tizimini joriy etishga doir takliflarni xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | Tahliliy ma’lumotlar | 2022-yil 1-dekabr | |

*(9-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.09.2022-y., 06/22/220/0812-son)*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son Farmoniga
10-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-yanvardagi “Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki obyektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4933-son Farmonida:

a) 1-bandda:

uchinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlari asosida sotiladigan davlat mulki obyektlarini sotishdan tushadigan mablag‘lar tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy budjetlariga hamda obyekt joylashgan tuman (shahar) mahalliy budjetiga teng ulushlarda yo‘naltiriladi, belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg‘armasi tasarrufida qoladigan mablag‘lar bundan mustasno”;

to‘rtinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

beshinchi — yettinchi xatboshilar tegishincha to‘rtinchi — oltinchi xatboshilar deb hisoblansin;

b) 7-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5005-son Farmonining 8-bandi “bojxona rasmiylashtiruvlari uchun yig‘imlardan” so‘zlaridan keyin “va qo‘shilgan qiymat solig‘idan” so‘zlari bilan to‘ldirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5044-son Farmonining 5-bandida:

a) uchinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

b) to‘rtinchi xatboshi uchinchi xatboshi deb hisoblansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5052-son Farmonining 6-bandida:

a) ikkinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

b) uchinchi — sakkizinchi xatboshilar tegishincha ikkinchi — yettinchi xatboshilar deb hisoblansin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-son Farmonining 13-bandida:

a) yettinchi xatboshi “to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

b) sakkizinchi xatboshi chiqarib tashlansin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5326-son Farmonida:

a) 8-bandning “a” kichik bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“a) asosiy faoliyat turi tematik xiyobonlar xizmatlarini tashkil qilish bo‘lgan yuridik shaxslarni ular tomonidan tematik xiyobonlar 2022-yil 1-iyuldan kechiktirmay foydalanishga topshirilganda foydalanishga topshirilgan sanadan e’tiboran 3 yil muddatga — yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, yer solig‘i va mol-mulk solig‘i, shuningdek, aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashdan”;

b) 9-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi “O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5388-son Farmonining 7-bandi ikkinchi xatboshisi chiqarib tashlansin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5630-son Farmonida:

a) 5-bandning uchinchi xatboshisidagi “yer uchastkalariga bo‘lgan huquqni va” so‘zlari “qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkasiga bo‘lgan ijara va mulk huquqini hamda” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 6-bandda:

“b” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“b) davlat aktivlarini sotishdan tushadigan mablag‘larning (ushbu bandning “v” va “g” kichik bandlari bundan mustasno):

87 foizi — O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetiga;

10 foizi — Jamg‘armaga;

3 foizi — Sportni rivojlantirish vazirligi huzuridagi Sportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga”;

“v” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“v) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining qarorlari asosida sotiladigan davlat mulki obyektlarini sotishdan tushadigan mablag‘lar:

90 foizi — tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy budjetlariga hamda obyekt joylashgan tuman (shahar) mahalliy budjetiga teng ulushlarda;

10 foizi — Jamg‘armaga”;

quyidagi mazmundagi “g” va “d” kichik bandlar bilan to‘ldirilsin:

“g) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkasiga bo‘lgan ijara yoki mulk huquqini sotishdan tushgan mablag‘larni taqsimlash O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

d) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli hujjatlarida aniq davlat aktivini sotishdan tushgan mablag‘larni boshqa maqsadlarga to‘liq yoki qisman yo‘naltirish ko‘zda tutilgan taqdirda, mazkur bandning “b” va “v” kichik bandlari mablag‘larning qolgan qismiga nisbatan tatbiq etiladi”.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-fevraldagi “Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5666-son Farmonining 11-bandi ikkinchi xatboshisidagi “(xususiylashtirilmaydigan obyektlar bundan mustasno)” so‘zlari “(qonunchilik hujjatlariga muvofiq xususiylashtirilmaydigan obyektlar bundan mustasno), avtomototransport vositalarni hamda boshqa asosiy vositalarini” so‘zlari bilan almashtirilsin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5742-son Farmonining 4-bandida:

a) oltinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

b) yettinchi — to‘qqizinchi xatboshilar tegishincha oltinchi — sakkizinchi xatboshilar deb hisoblansin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktabrdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6096-son Farmonining 12-bandi oltinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“davlat ulushlarini bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan oldi-sotdi shartnomalari doirasida belgilangan grafikka asosan qisman to‘lovni amalga oshirgan xaridorlarga to‘liq to‘lovlar amalga oshirilgunga qadar ulush qiymatining to‘langan qismiga mutanosib ravishda jamiyat boshqaruvida ishtirok etish va dividendlar olish huquqi asosida shakli Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan “tasarruf etish huquqisiz” egalik sertifikati beriladi, bundan davlat ulushi jamiyatning o‘ziga sotilgan holatlar mustasno”.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-fevraldagi “Davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish to‘g‘risida”gi PF-6167-son Farmonida:

a) quyidagi mazmundagi $3^1$-band bilan to‘ldirilsin:

“$3^1$. “UzAssets” AJ investitsiya kompaniyasi ustav kapitaliga berish orqali sotilgan davlat aksiya paketlari (ulushlari)ni sotishdan tushgan mablag‘lar (“UzAssets” AJ Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan saqlash xarajatlari, jumladan, korxonalarni sotishdan oldingi tayyorlash va sotish bilan bog‘liq xarajatlarni chegirgan holda) har chorakda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi budjetdan tashqari Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg‘armasiga o‘tkaziladi hamda qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda taqsimlanadi.

Bunda, ushbu aktivlarni sotishdan tushgan mablag‘lar bo‘yicha “UzAssets” AJ foyda solig‘i hamda to‘lov manbaidan ushlab qolinadigan dividendlardan olinadigan soliq summasini to‘lashdan ozod etiladi”;

b) 1-ilovada:

ilova matnining (“**” va “***” belgili izohlar hamda ro‘yxatning ularga havola qiluvchi pozitsiyalardan tashqari) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvardagi PF-52-son Farmonining 1-ilovasi 15-bandi bilan bayon etilgan tahriri haqiqiy emas deb hisoblansin;

ilova matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**“2021-yilda savdoga chiqariladigan davlat aktivlarining**

**RO‘YXATI**

| T/r | Nomi | Joylashgan hudud | Balansda saqlovchi | Umumiy yer maydoni (ga) | Bino-inshootlar maydoni (kv.m) |
|---|---|---|---|---|---|
| **I. 2021-yil martdan savdoga chiqariladigan davlat aktivlari** | | | | | |
| 1. | “Poytaxt biznes majmuasi” MChJ* | Toshkent shahri, Yunusobod tumani | Toshkent shahar hokimligi | 0,4 | 34 592 |
| 2. | “Shahar mehmonxonasi” DUK | Toshkent shahri, M. Ulug‘bek tumani | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi | 2,2 | 12 256 |
| 3. | Gazetalar ishlab chiqarish majmuasi binosi | Toshkent shahri, Mirobod tumani | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi | 1,9 | 17 863 |
| 4. | “Malika” savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmuasi | Toshkent shahri, Shayxontohur tumani | Toshkent shahar hokimligi | 4,1 | 13 833 |
| 5. | “Byeldirsoy oromgohi” dam olish maskani** | Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumani | Toshkent shahar hokimligi “Byeldirsoy oromgohi” sho‘ba korxonasi sog‘lomlashtirish markazi | 46,1 | 9 628 |
| 6. | “Chorvoq oromgohi” dam olish maskani** | Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumani | Toshkent shahar hokimligi “Chorvoq oromgohi” sho‘ba korxonasi sog‘lomlashtirish markazi | 76,1 | 31 211 |
| 7. | “Ichan qal’a” mehmonxona majmuasi*** | Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani | O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi | 0,6 | 10 100 |
| 8. | “Sijjak” dam olish maskani | Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumani | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi | 5,4 | 5 016 |
| 9. | “Avtogazta’minot” MChJ | Toshkent shahri, Yashnobod tumani | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi | 18,4 | 19 316 |
| 10. | “Qizil suv sport sog‘lomlashtirish” MChJ** | Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumani | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi | 5,9 | 2 746 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **II. 2021-yil sentyabrdan savdoga chiqariladigan davlat aktivlari** | | | | | |
| 11. | “Toshkent” mehmonxonasi | Toshkent shahar, Yunusobod tumani | “O‘zmilliybank” AJ | 1,1 | 24 206 |
| 12. | “Nyatt Regency Tashkent” mehmonxonasi | Toshkent shahar, Yunusobod tumani | Toshkent shahar hokimligi “Poytaxt qurilish va xizmat” DUK | 3,1 | 60 113 |
| 13. | Kinozal (Premier hall) | Toshkent shahar, Mirobod tumani | “O'ZBEKKINO” DUK | 0,1 | 2 873 |
| 14. | Ma’muriy bino (matbuot uyi) | Toshkent shahar, Mirobod tumani | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi | 0,82 | 18 142 |
| 15. | “Chotqol” oromgohi bino va inshootlari | Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumani | “Toshneftgazqurilish” AJ | 18,0 | 7 202 |
| 16. | Ishlab chiqarish binosi (sobiq “Algoritm” zavodi bino-inshootlari) | Toshkent shahar, Chilonzor tumani | Toshkent shahar hokimligi | 16,13 | 86 004 |
| 17. | “Sergeli” kichik sanoat zonasi bino va inshootlari | Toshkent shahar, Sirg‘ali tumani | Toshkent shahar hokimligi | 11,83 | 89 192 |
| 18. | “Bektemir” kichik sanoat zonasi bino va inshootlari | Toshkent shahar, Bektemir tumani | Toshkent shahar hokimligi | 5 | 33 733 |
| 19. | “O‘zmetkombinat” AJning temir saqlash va yuklash ombori | Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani | “O‘zmetkombinat” AJ | 5,8 | 4 351 |
| 20. | Noturar bino-inshoot kompleksi (Parranda fabrikasi) | Toshkent viloyati, Zangiota tumani | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi | 20,7 | 31 105 |
| 21. | Bo‘sh turgan bino va inshootlar (sobiq Kinologiya markazi) | Toshkent shahar, Yashnobod tumani | Toshkent shahar hokimligi | 8,6 | 16 531 |

Izoh.

1. Ushbu ilovada ko‘rsatilgan davlat aktivlarini sotishdan tushgan mablag‘larning (aktivlarni savdolarga chiqarish va sotish bilan bog‘liq xarajatlarni chegirgan holda) 95 foizi O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetiga yo‘naltiriladi, 5 foizi Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg‘armasi tasarrufida qoldiriladi.

2. Obyektlar ulush yoki mulkiy majmua sifatida savdolarga chiqariladi. Ulush sifatida chiqarilganda ushbu ilovada ko‘rsatilgan obyektlar jamiyat ustav fondiga balans qiymatida beriladi.

3. Sotish shartlari va usullari (jumladan professional tashkilotlarni jalb etish zarurati) Davlat mulkini sotishda tender savdolarini o‘tkazish bo‘yicha davlat komissiyasi tomonidan belgilanadi.

4. Obyektlarning maydoniga kadastr hujjatlari asosida aniqlik kiritiladi.

5. Ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek, ustav fondining (ustav kapitalining) 50 foizi va undan ortig‘i 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxsga tegishli bo‘lgan yuridik shaxslar boshqaruv organlari qarorlari asosida ushbu ilovada ko‘rsatilgan obyektlar yuridik shaxslarning davlat va xo‘jalik jamiyati ulushini obyektning balans qiymatiga kamaytirish hisobiga Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga o‘tkazish orqali savdoga chiqariladi.

* “Poytaxt biznes majmuasi” MChJ ustav kapitalidagi davlat ulushi va unga operativ boshqaruvga berilgan davlat ko‘chmas mulk obyekti jamiyat ustav kapitalidagi davlat ulushini oshirish uchun balans qiymatida Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga o‘tkaziladi.

** “Byeldirsoy oromgohi” dam olish maskani, “Chorvoq oromgohi” dam olish maskani va “Qizil suv sport sog‘lomlashtirish” MChJ davlat aktivlarini sotishdan tushgan mablag‘larning (aktivlarni savdolarga chiqarish va sotish bilan bog‘liq xarajatlarni chegirgan holda) 90 foizi O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetiga va 5 foizi Tog‘li va olis hududlarda turistik infratuzilmani rivojlantirish jamg‘armasiga yo‘naltiriladi, 5 foizi Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg‘armasi tasarrufida qoldiriladi.

*** “Ichan qal’a” mehmonxona majmuasi davlat aktivlarini sotishdan tushgan mablag‘larning (aktivlarni savdolarga chiqarish va sotish bilan bog‘liq xarajatlarni chegirgan holda) 90 foizi O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetiga va 5 foizi Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga yo‘naltiriladi, 5 foizi Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg‘armasi tasarrufida qoldiriladi”.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son Farmoni bilan tasdiqlangan Ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar ro‘yxatida:

a) 14-pozitsiyada:

“Axborotning turi, toifalar nomlanishi (parametrlar)” ustunidagi “saqlash xarajatlari to‘g‘risidagi” so‘zlaridan keyin “va boshqa” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

“Ma’lumot joylashtirilgan resurs” ustunidagi “Rasmiy veb-saytlar” so‘zlaridan oldin “Ochiq ma’lumotlar portali,” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

b) 15-pozitsiyasidagi “Axborotning turi, toifalar nomlanishi (parametrlar)” ustunidagi “boshqa ko‘chmas mulklar” so‘zlaridan keyin “, qurilishi tugallanmagan obyektlar” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

v) quyidagi mazmundagi 34-pozitsiya bilan to‘ldirilsin:

“

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 34. | O‘zlarining tarkibiga kiruvchi davlat muassasalarining nomi, faoliyat turi, funksiya va vakolatlari hamda rahbarlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar. | Rasmiy veb-saytlar | Har chorakda | Davlat organlari va tashkilotlari |

”.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 21-iyuldagi PQ-423-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat mulkini sotish bo‘yicha tender savdolari o‘tkazuvchi Davlat komissiyasi to‘g‘risidagi nizomning 4-bandida:

a) quyidagi mazmundagi yigirmanchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“davlat muassasalarini (bundan xususiylashtirilmaydigan davlat muassasalari mustasno) xo‘jalik jamiyatlariga o‘zgartirish, shuningdek, davlat muassasalarini tugatish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish uchun muassislarga ko‘rsatma va takliflar kiritish”;

b) yigirmanchi — yigirma beshinchi xatboshilar tegishincha yigirma birinchi — yigirma oltinchi xatboshilar deb hisoblansin.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-maydagi “Fosforit xomashyosini ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1975-son qarori rus tilidagi matnida 4-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“4. Osvobodit v ramkax realizatsii proyekta “Rasshireniye suщestvuyuщego proizvodstva po obogaщeniyu fosforitnogo sirya na baze deystvuyuщego Kizilkumskogo fosforitovogo kompleksa GP “Navoiyskiy GMK”:

ot tamojennix platejey (za isklyucheniyem naloga na dobavlennuyu stoimost i tamojennix sborov) texniku, oborudovaniye i zapasnie chasti k nim, a takje materiali, ne proizvodimie v Respublike Uzbekistan, vvozimie GP “Navoiyskiy GMK”, po perechnyam, formiruyemim v ustanovlennom poryadke;

OOO “Qizilqum fosforit kompleksi” v chasti proizvodstva mitogo obojjennogo fosforitnogo konsentrata, srokom do 1-yanvarya 2024 goda, ot uplati naloga za polzovaniye vodnimi resursami, naloga na imuщestvo yuridicheskix lits i zemelnogo naloga s yuridicheskix lits”.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 19-sentabrdagi “Axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqishga xorijiy investitsiyalarni jalb etish to‘g‘risida”gi PQ-2237-son qarori 5-bandi uchinchi xatboshisi va 7-bandi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-2776-son qarorida:

a) 4-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

b) 6-bandda:

ikkinchi xatboshi “ozod qilinsin” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

uchinchi xatboshi chiqarib tashlansin.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-martdagi “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2856-son qarori 7-bandida:

a) ikkinchi xatboshidagi “yuridik shaxslarning yagona soliq to‘lovini” so‘zlari “aylanmadan olinadigan soliqni” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) uchinchi xatboshida ““O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tarkibiga kiruvchi tashkilotlar hamda ipak qurti urug‘ini ishlab chiqarish, pillani tayyorlash va qayta ishlash tashkilotlari tomonidan” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasiga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) beshinchi xatboshidagi “yagona ijtimoiy to‘lovdan” so‘zlari “ijtimoiy soliqdan” so‘zlari bilan almashtirilsin.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi “Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2939-son qarorining 16-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“16. Yuridik shaxslar 2023-yil 1-yanvargacha bo‘lgan muddatda lichinka, baliq chavoqlari va tovar baliq yetishtirishdan, baliqchilik mahsulotlarini tayyorlash va qayta ishlashdan olingan daromadlar bo‘yicha aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashdan ozod etilsin”.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi yong‘in-qutqaruv bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2992-son qarori 16-bandida “bojxona rasmiylashtiruvi yig‘imlari” so‘zlaridan keyin “va qo‘shilgan qiymat solig‘i” so‘zlari bilan to‘ldirilsin.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3068-son qarori 5-bandining uchinchi xatboshisi chiqarib tashlansin.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-oktabrdagi “Avtomobil yo‘llari ko‘priklarini, yo‘l o‘tkazgichlar va boshqa sun’iy inshootlarni qurish hamda foydalanishni tashkil etish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3309-son qarori 8-bandining to‘rtinchi va beshinchi xatboshilari chiqarib tashlansin.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-yanvardagi “Respublikada ipakchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3472-son qarorining 10-bandida:

a) “a” kichik band birinchi xatboshisidagi “va “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tarkibiga kiruvchi” so‘zlari chiqarib tashlansin;

b) “b” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“b) tashkilotlar tutzorlar bilan band bo‘lgan yer maydonlari qismida yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i to‘lashdan”;

v) “v” kichik band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-fevraldagi “Xorijdagi davlat mulkidan samarali foydalanishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3570-son qarorida:

a) 1-banddagi “O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi huzuridagi “Davlat aktivlarini boshqarish markazi” davlat unitar korxonasiga (keyingi o‘rinlarda — Markaz)” so‘zlari “Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga (keyingi o‘rinlarda — Agentlik)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 2-bandning birinchi xatboshisidagi “Markaz” so‘zi “Agentlik” so‘zi bilan almashtirilsin;

v) 3-bandda:

birinchi xatboshidagi “markazining” so‘zi chiqarib tashlansin;

ikkinchi xatboshidagi “Markazning” so‘zi “Agentlikning” so‘zi bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi “Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi budjetdan tashqari Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) mablag‘lari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

yettinchi xatboshidagi “Markazning” so‘zi “Agentlikning” so‘zi bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Chet elda joylashgan davlat mulki obyektlarini sotishdan tushgan mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumat qarorlarida boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, Agentlik tomonidan umumiy tartibda taqsimlanadi”;

g) 4-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“4. Agentlik O‘zbekiston Respublikasi hududida mulkka bo‘lgan egalik huquqini rasmiylashtirish hamda amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlardan ozod qilinsin”;

d) 5-bandda:

birinchi xatboshidagi “Markaz” so‘zi “Agentlik” so‘zi bilan almashtirilsin;

uchinchi va to‘rtinchi xatboshilar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tashqi ishlar vazirligi, Moliya vazirligi va Bosh prokuratura bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi sudlarining qarorlari xorijiy davlatlarda ijro etilganidan keyin mulklarni inventarizatsiya qilishni va O‘zbekiston Respublikasining mulkka egalik huquqi rasmiylashtirilishini ta’minlasin;

mulkni yanada samarali tasarruf etish, shu jumladan uni sotish, O‘zbekiston Respublikasi davlat organlariga belgilangan tartibda ijaraga yoki ishonchli boshqaruvga topshirish to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritib borsin”;

e) 6-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. Belgilansinki, O‘zbekiston Respublikasining aktivlari bo‘yicha huquqlarini himoya qilish, da’vo, sud, arbitraj va boshqa ishlarni ko‘rib chiqish, shuningdek, xorijiy auditorlik, advokatlik, konsalting tashkilotlari va boshqa tashkilotlarni, mustaqil ekspertlarni jalb qilish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar yuzaga kelgan taqdirda Agentlikning maxsus hisobvaraqlarida jamg‘arib borilayotgan mablag‘lari hisobiga, mablag‘lar yetarli bo‘lmagan taqdirda esa Agentlikning asoslangan talabnomalari asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasidan ajratiladigan mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi”;

j) 7-banddagi “Markaz Davlat raqobat qo‘mitasi bilan birgalikda” so‘zlari “Agentlik” so‘zi bilan almashtirilsin;

z) 9-bandda:

ikkinchi xatboshidagi “, Davlat raqobat qo‘mitasi bilan birgalikda Markazning” so‘zlari “bilan birgalikda Agentlikning” so‘zlari bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi “Markazga” so‘zi “Agentlikka” so‘zi bilan almashtirilsin.

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-fevraldagi “Vinochilik sohasini va alkogolli mahsulotlarni realizatsiya qilishni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3573-son qarori 12-bandida:

ikkinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

uchinchi xatboshi ikkinchi xatboshi deb hisoblansin.

26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-maydagi “Charm-poyabzal va mo‘ynachilik sohalarini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3693-son qarorining 10-bandi uchinchi xatboshisidan “faqat Uyushmaga a’zolari — tashkilotlarga” so‘zlari chiqarib tashlansin.

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki va “Mikrokreditbank” aksiyadorlik tijorat bankining

moliyaviy holatini yaxshilash hamda faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3694-son qarorining 4-bandida:

a) to‘rtinchi xatboshi “to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

b) beshinchi xatboshi chiqarib tashlansin.

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tuman (shahar)lardagi Xalq qabulxonalari huzuridagi Davlat xizmatlari markazlari binolarining davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida qurilishini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3701-son qarori 2-bandida:

sakkizinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

to‘qqizinchi va o‘ninchi xatboshlari tegishincha sakkizinchi va to‘qqizinchi xatboshlar deb hisoblansin.

29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyundagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3802-son qarori 9-bandining ikkinchi xatboshisi chiqarib tashlansin.

30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-noyabrdagi “Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4005-son qarori 7-bandining ikkinchi xatboshisi chiqarib tashlansin.

31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-dekabrdagi “Respublikada pillachilik tarmog‘ini jadal rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4047-son qarorining 7-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Tashkilotlar pilla yetishtirish amalga oshirilayotgan ko‘chmas mulklar va yer uchastkalari qismida 2023-yil 1-yanvarga qadar muddatga yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer soliqlarini to‘lashdan ozod etilsin, buning natijasida bo‘shaydigan mablag‘lar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, shu jumladan texnologik uskunalar sotib olish uchun maqsadli tarzda yo‘naltirilsin”.

32. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4095-son qarori 14-bandida “bojxona rasmiylashtiruvi yig‘imlaridan” so‘zlaridan keyin “va qo‘shilgan qiymat solig‘idan” so‘zlari bilan to‘ldirilsin.

33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-sentabrdagi “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4453-son qarorining 3-bandida:

a) uchinchi va beshinchi xatboshilar chiqarib tashlansin;

b) to‘rtinchi xatboshi uchinchi xatboshi deb hisoblansin.

34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligi tarmog‘ida sog‘lom raqobat muhitini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4969-son qarorining 1-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1. Qishloq xo‘jaligi mashinasozligi tarmog‘ida faoliyat yurituvchi mahalliy qishloq xo‘jaligi texnikasini ishlab chiqaruvchilar qishloq xo‘jaligi texnikasini ishlab chiqarish va unga servis xizmatini ko‘rsatish uchun butlovchi buyumlar, xomashyo va materiallarni import qilishda tovarlar erkin muomalaga (importga) chiqarishning bojxona rejimiga joylashtirilgan sanadan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini 270 kun kechiktirib to‘lashiga ruxsat berilsin”.

35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-oktabrdagi “Chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida nazorat-kassa texnikasidan foydalanishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5252-son qarorining 2-bandi “b” kichik bandi to‘rtinchi xatboshisidagi “shtrix-kodlar” so‘zlaridan oldin “chakana savdoni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari uchun -” so‘zlari bilan to‘ldirilsin.

36. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-168-son qarorining 4-ilovasida:

quyidagi mazmundagi $17^1$-pozitsiya bilan to‘ldirilsin:

“

| 17[1]. | "UzPaynet" MChJ | AT "Xalq banki" | 100 |
|---|---|---|---|

".

37. Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 30-sentabrdagi "Toshkent shahrida xalqaro toifadagi mehmonxona qurilishini yakunlash chora-tabirlari toʻgʻrisida"gi 279-son qarorining rus tilidagi matni quyidagi mazmundagi 11[1]-band bilan toʻldirilsin:

"11[1]. Ustanovit, chto pri izmenenii organizatsionno-pravovoy formi GUP "Poytaxt kurilish va xizmat" (gostinitsa "Xayatt Ridjensi"), k vnov voznikshemu yuridicheskomu litsu perexodyat vse prava i obyazannosti reorganizovannogo unitarnogo predpriyatiya, vklyuchaya vse predostavlennie nalogovie lgoti i preferensii".

38. Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 22-fevraldagi "Toshkent shahrida "Xayatt Ridjensi" savdo belgisi ostida xalqaro toifadagi mehmonxona qurilishini oʻz vaqtida tugallash va mehmonxonaning samarali ishlashini taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi 49-son qarorining rus tilidagi matnida:

a) quyidagi mazmundagi 4[1]-band bilan toʻldirilsin:

"4[1]. Ustanovit, chto:

pri izmenenii organizatsionno-pravovoy formi GUP "Poytaxt kurilish va xizmat" (gostinitsa "Xayatt Ridjensi"), k vnov voznikshemu yuridicheskomu litsu perexodyat vse prava i obyazannosti reorganizovannogo unitarnogo predpriyatiya, vklyuchaya vse predostavlennie lgoti i preferensii;

Ministerstvu finansov sovmestno s xokimiyatom goroda Tashkenta predusmotret v parametrax Gosudarstvennogo budjeta Respubliki Uzbekistan ejegodnoye videleniye sredstv na pogasheniye osnovnogo dolga i viplatu protsentov po privlechennomu kreditu Fonda rekonstruksii i razvitiya Respubliki Uzbekistan s uchetom utverjdennix prognoznix grafikov soglasno prilojeniyu № 2";

b) 8-bandning uchinchi xatboshisi chiqarib tashlansin.

39. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-yanvardagi "Paxta-toʻqimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi 53-son qarorining 6-bandida:

a) beshinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

b) oltinchi xatboshi beshinchi xatboshi deb hisoblansin.

40. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27-yanvardagi "Oʻzbekiston Respublikasida qizilmiya va boshqa dorivor oʻsimliklarni yetishtirish hamda sanoat usulida qayta ishlashni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi 63-son qarori 15-bandida:

ikkinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

uchinchi xatboshi ikkinchi xatboshi deb hisoblansin.

41. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-yanvardagi "Toshkent shahrining uy-joy kommunal infratuzilmasini boshqarishni takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida" 5-son qarorining 11-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"11. Boshqaruv kompaniyalarining shartnoma doirasida koʻp kvartirali uy-joy fondini saqlash, undan foydalanish va taʼmirlash uchun olingan daromadlari qoʻshilgan qiymat soligʻi va foyda soligʻidan ozod etilsin".

42. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-fevraldagi "Qizilmiya va boshqa dorivor oʻsimliklarni yetishtirish hamda sanoat usulida qayta ishlashni samarali tashkil etishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi 138-son qarorining 9-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"9. Qizilmiya va boshqa dorivor oʻsimliklar plantatsiyalarini tashkil etadigan, shuningdek, qizilmiya va boshqa dorivor oʻsimliklarni qayta ishlaydigan tadbirkorlik subyektlariga 2024-yil 1-yanvargacha boʻlgan muddatga:

a) quyidagilardan:

qizilmiya va boshqa dorivor oʻsimliklarni yetishtirishda va (yoki) qayta ishlashda foydalaniladigan (olinadigan) obyektlar (foyda, daromad) qismida yuridik shaxslardan olinadigan

yer solig‘i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va foyda solig‘i va aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashdan;

belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxatlar bo‘yicha o‘zlarining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun respublikada ishlab chiqarilmaydigan olib kelinadigan texnologik uskunalar, maxsus qishloq xo‘jaligi texnikalari, ularning butlovchi va ehtiyot qismlari, qizilmiya va boshqa dorivor o‘simliklar urug‘lari va ko‘chatlari uchun bojxona bojidan ozod qilish.

b) plantatsiyalar tashkil etish uchun ekish materiallarini (urug‘, qalamchalar) tayyorlash (yig‘ish) maqsadida ruxsatnoma olish uchun yig‘imlar to‘lovini kechiktirish tarzida imtiyozlar berilsin”.

43. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-iyuldagi “Jizzax viloyatida go‘sht-sut mahsulotlari yetishtirish yo‘nalishidagi agrosanoat klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 619-son qarorining 9-bandida:

a) “a” kichik bandda “yagona ijtimoiy to‘lovni” so‘zlari “ijtimoiy soliqni” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) “b” kichik bandning ikkinchi xatboshisi “bojxona yig‘imlardan” so‘zlaridan keyin “va qo‘shilgan qiymat solig‘idan” so‘zlari bilan to‘ldirilsin.

44. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 10-avgustdagi “Ishlab chiqarish maydonlaridan samarali foydalanish, yangi ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 656-son qarori 3-bandi “e” kichik bandi “bojxona rasmiylashtiruvi yig‘imlari” so‘zlaridan keyin “va qo‘shilgan qiymat solig‘i” so‘zlari bilan to‘ldirilsin.

45. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi 77-son qarorining 3-bandida:

a) birinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

b) ikkinchi xatboshi birinchi xatboshi deb hisoblansin.

Izoh.

Mazkur ilovaning 1-bandi “b” kichik bandi, 5 — 7, 15, 16, 20, 21, 25, 28, 29, 39, 40 va 43-bandlari 2022-yil 1-iyuldan hamda 2, 4, 10, 17, 22, 32 — 34, 41 va 44-bandlari, 38-bandning “b” kichik bandi 2023-yil 1-yanvardan amalga kiritiladi.

Mazkur ilovaning 30-bandiga asosan bekor qilinayotgan imtiyozdan foydalanayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun uning amal qilish muddati saqlab qolinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son Farmoniga
11-ILOVA

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanayotgan ayrim hujjatlari

RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4720-son Farmonining 10-bandi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi PF-4986-son Farmoniga ilovaning 6-bandi “b” kichik bandi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi ““Yoshlar — kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5466-son Farmoni 3-bandining “d” kichik bandi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvardagi “Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi PF-52-son Farmoniga 1-ilovaning 15-bandi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 27-sentabrdagi “Qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-475-son qarori 4-bandi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 12-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2008-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-744-son qaroriga 31-ilovaning 12-bandi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 22-maydagi “Motor moylari ishlab chiqarishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1759-son qarorining 8-bandi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-iyundagi “Nukus shahrida elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3055-son qarorining 8-bandi.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 6-iyuldagi “Toshkent shahrida bolalar buyumlari va o‘yinchoqlarini ishlab chiqaruvchi zamonaviy korxonani tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3115-son qarorining 6-bandi.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi “2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3217 qarorining 11-bandi.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-avgustdagi “Respublikada sellyuloza va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha qo‘shimcha quvvatlar tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3244-son qarorining 6-bandi.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Milliy antidoping agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3457-son qarorining 12-bandi.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3578-son qarorining 17-bandi.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-martdagi “Pillachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3616-son qarorining 13-bandi.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi hududida xorijiy davlatlarning malakali mutaxassislari tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4008-son qarori 5-bandining “b” kichik bandi.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-noyabrdagi “Qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olish faoliyatini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4030-son qarorining 4-bandi.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-iyundagi “Turizm sohasini sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat’iy rioya qilgan holda rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4755-son qaroriga 2-ilovaning 2-bandi.

18. Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 31-yanvardagi “Afg‘oniston hududiga tijorat yuklarini transportda tashishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 41-son qarorining 2-bandi.

19. Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 14-maydagi “Qo‘ng‘irot soda zavodi qurilishini tugallash to‘g‘risida” 158-son qarorining 11-bandi.

20. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktabrdagi “Davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 279-son qaroriga 4-ilovaning “III$^{1}$” bo‘limi.

21. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki obyektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 17-yanvardagi PF-4933-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat mulki obyektlarini sotish tartib-taomillarini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 16-iyundagi PQ-3067-son qarori)"gi 837-son qaroriga ilovaning 1-bandi "d" kichik bandining o'ttiz ikkinchi — o'ttiz yettinchi xatboshilari.

22. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 14-iyundagi "Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimining tubdan takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi 498-son qaroriga 1-ilovaning 30-bandi "g" kichik bandining uchinchi xatboshisi.

23. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 19-fevraldagi PF-5666-son Farmoni)"gi 425-son qaroriga 1-ilovaning 9-bandi "g" kichik bandining ellik to'qqizinchi va oltmishinchi xatboshilari.

Izoh. Mazkur ilovaning 2, 3, 7, 8, 9, 14, 16 va 18-bandlari 2022-yil 1-iyuldan, 1, 6, 10 — 13, 15, 17 va 19-bandlari 2023-yil 1-yanvardan amalga kiritiladi.

*(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.04.2022-y., 06/22/101/0288-son; 01.06.2022-y., 06/22/145/0459-son; 10.09.2022-y., 06/22/220/0812-son)*